

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT
FAKULTETI**



Palvanova Sevara Qadamboyevnaning

**“5140700-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo’nalishii bo’yich
bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu:”Umumta’lim maktablarida xalq amaliy san’ati turlarining o’qitish’

Ilmiy rahbar:

Qo’chqaro’va Q

Urganch 2013 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

**“Umumta'lim maktablarida Xalq amaliy san'ati turlarining
o'qitilishi”**

Bajaruvchi:  **Palvanova Sevara Qadamboyevna**
Rahbar:  **Qo'chqarova Q**

Urganch shahri
2013 yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI
BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Palvanova Sevara Qadambayevaga universitet rektorining «1-Tg3»-sonli 3.01.2013 y. buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun **“Umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitilishi”** mavzusi tasdiqlangan.
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan Qo'chqarova Q. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:
 - a) mavzu mazmunini ochib beruvchi ko'rgazmali vositalar;
 - b) mavzuning elektron shaklda tayyorlangan matni
 - Kirish
 - 1 bob. Zardo'zlik san'ati va bajarish tehnolo'giyasi.
 - 2 bob. O'zbek xalq amaliy san'atida kampazitsiyaning o'rni.
 - Xulosa
 - Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar:

Bitiruv malakaviy ish ikki qism: nazariy va amaliy qismlardan iborat. Nazariy qismning tarkibiy tuzilmasi yuqorida ko'rsatilgan bo'lib, matn elektron variantda 10-15 ming so'z atrofida bo'ladi. Dastlabki bosqichda quyidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya qilinadi:

 1. Karimov I. A. «O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari»; --T.; «O'zbekiston». 1995
 2. Xalq badiiy xunarmandchilik va Amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yO'li bilan qullab-quvvatlash chora tadbirlar tugrisida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni,-- T.; «Toshkent oqshomi» gaz. 2 aprel, 1997, 38. – son.
 3. Rempel L.I. Pandjara. -- T.; Gosudarstvenniy izdatelstvo xudojestvennoy literaturi. 1957
 4. Rempel L.I. Arxitekturniy ornament Uzbekistana. -- T: Gosudarstvenniy izd, xud. literaturi. 1961
 5. Pugachenkova G.A. Xalchayan. (Shimoliy Baktriya badiiy sanati muammosiga doir) - T.; O'zbekiston «Fan» nashriyoti. 1966

6. Faxretdinova D.A. *Dekorativno-prikladnoe iskusstvo Uzbekistana*. - T.; izd. literaturi i iskusstva im. Gafura Gulyama.

7. Pugachenkova G.A. *Zodchestvo Tsentralnoy Azii. XV vek* -- T.; Izd. literaturi i iskusstva im. Gafura Gulyama. 1976

Ishni bajarish jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati to'ldirib boriladi.

5. Bitiruv malakaviy ishga mavzu mazmunini ochib beruvchi plakatlar va boshqa ko'rgazmali vositalarning eskizlari, to'quvchilik buyumlari tayyorlangan turli tarqatma va boshqa shakillardagi materiallarning chizmalari ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlash.	27.08.12y
2	Bitiruv malakaviy ishi topshirig'i mazmuni va hajmini aniqlash.	10.09.12y
3	Maxsus adabiyotlarni o'rganish, loyiha bo'yicha psixologik-pedagogik, metodik va amaliy materiallari yig'ilishi.	24.12.12y gacha
4	Loyiha bo'yicha tajriba mazmuni, hajmi va tartibini aniqlashtirish.	14.01.13y
5	Tajriba ish (o'qish)larni tashkil qilish va o'tkazish sifati (maktab, kollej ...).	21.01.13y
6	Tajriba natijalarini umumlashtirish va taxlil qilish.	11.02.13y
7	Bitiruv malakaviy ishi loyihasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash.	11.03.13y
8	Eskizlarni to'la tasdiqlash va malakaviy bitiruv ishi loyixasi nazariy va amaliy qismlari mazmunini tasdiqlash.	25.03.13y
9	Bitiruv malakaviy ishi loyixasini bajarishning borishi nazorati va uning nazariy hamda amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi.	22.04.13y
10	Rahbar tomonidan tugallangan loyihani ko'rikdan o'tkazish.	13.05.13y
11	Tugallangan ishni bitiruv malakaviy ishi loyihasi rahbar xulosasi va uni himoyaga tavsiyasi bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.	27.05.13y

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

Qo'chqarova Q.

Bajaruvchi talaba:

Palvanova S.

2012 yil « 3 » oktabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yilda tasdiqlandi
(« 2 »- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

p.f.d., prof. Ro'ziev E.I.

Urganch davlat universiteti
Filologiya va san'at fakulteti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat yo'nalishi



* Tasdiqlayman*
fakultet dekani
dots.G'ayipov D.Q.

"29" may 2013 y.


BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba **Palvanova Sevara Qadamboyevna**

1. Ishning mavzusi "Umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitilishi"
«3» 01 2013 yil universitet rektorining 1-763 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
2. Ishni topshirish muddati: "20" may 2013 y.
3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati
 - a) Karimov I. A. «O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari»; --T.; «O'zbekiston». 1995
 - b) Xalq badiiy xunarmandchilik va Amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yO'li bilan qullab-quvvatlash chora tadbirlar tugrisida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni,-- T.; «Toshkent oqshomi» gaz. 2 aprel, 1997, 38 – son.
 - s) Rempel L.I. Pandjara. -- T.; Gosudarstvenniy izdatelstvo xudojestvennoy literaturi. 1957
 - d) Rempel L.I. Arxitekturniy ornament Uzbekistana. -- T: Gosudarstvenniy izd, xud. literaturi. 1961
 - e) Pugachenkova G.A. Xalchayan. (Shimoliy Baktriya badiiy sanati muammosiga doir) - T.; O'zbekiston «Fan» nashriyoti. 1966
4. Ishning maqsadi: Zardo'zlik san'atida qo'llaniladigan zaruriy asbob-uskunalarva zardo'zlikda ishlatiladigan naqishlar va ularning tuzilishlarinipuxta egallash.

5. Chizma materiallar ro'yxati:
- a) amaliy ish jarayonining borishi;
 - b) tayyor mahsulotlar chizmalari;

6. Maslahatchilar: o'qituvchi Taganov R, Latipov R

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Amaliy qism	Taganov R Latipov R		


Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni:
Urganch tumanidagi 38 – son o'rta umumta'lim maktabi tasviriy san'at o'qituvchisi
Sapayeva S.

7. Ilmiy rahbar:



Qo'chqarova Q.

BMI bajaruvchi talaba:



Palvanova S.

Kafedra mudiri:



p.f.d., prof. Ro'ziev E.I.

Urganch davlat universiteti

Filologiya va san'at fakulteti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası

Bitiruv malakaviy ish 1 sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Palvanova Sevara Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: "Umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitilishi"

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: **Qo'chqarova Q.**

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «20» may da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch tumanidagi 38-son umumta'lim maktabi tasviriy san'at o'qituvchisi Sapayeva S. tayinlandi.

Kafedra mudiri:



p.f.d., prof. Ro'ziyev E.I.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:



f.f.n., dots. G'ayipov D.Q.

MUNDARIJA

Kirish.	
1 Bob. Zardo`zlik san`ati va bajarish texnologiyasi.....	
1.1. Zardo`zlikda ishlatiladigan zaruriy ashyo va asbob-uskunalar.....	
1.2. Zardo`zlikda ishlatiladigan naqshlar va ularning tuzilishlari.....	
2 Bob. O`zbek xalq amaliy san`atida kompazitsiyaning o`mi.....	
2.1. Mahsulot ishlab chiqarish tehnalogiyasi.....	
2.2. Islimiy naqsh kompazitsiyalarini tuzish usullari.....	
2.3. Naqsh kompazitsiyasining asosiy hususiyatlari.....	
2.4. Naqqoshlik kompazitsiyalarida xarakat.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	
Ilovalar.....	

Kirish

O'zbek xalkining xalq amaliy bezak san'ati tomirlari necha ming yillarga borib takaladi. U zamonlardan bizga Samarkand, Buxoro va Xivaning ajoyib tarixiy yodgoliklari meros bulib kolgan. Uzbek arxeologlari Xolchayon, Tuprokkal'a, Bolaliktepa, Varaxsha va Afrosiyob kabi joylarda kadimiy me'morchilik yodgoliklarini topdilar. Bu yodgorlik saroylar xamda kasrlarning devorlarida saklanib kolgan maxobatli nakshlar, xaykaltaroshlik asarlari kadimiy san'tkorlarning mukammal ijodlarini butun dunyoga namoyish etmokda.

Zardo'zlik san'ati qadimiy va ayni chogda zamonaviydir. Zardo'zlik san'ati bilan shugullanish kup kuchni yuksak maxoratni talab qiladi. Vatanimiz mustakilligiga erishgandan boshlab ma'naviy merosni saklash xamda O'zbekiston Respublikasidagi iste'dodli xalq amaliy san'ati ustalarining ijodini ko'llab-kuvvatlash masalalariga katta e'tibor bilan karab kelmokda.

Rivojlanishning o'sish davri kiyinchiliklariga karamay, O'zbekiston xalklari madaniy tarixining ajoyib namunalarini izlab topish va sotib olish uchun xamisha imkon topib kelinmokda.

Zarduzlik san'ati xam eng kadimiy san'at turi xisoblanib, undan 16-17 asrlardan boshlab foydalanib kelingan.

Uzbekistonda ayniksa Buxoro va Samarkandda juda kadimdan rivoj topgan. Bu viloyatlarda tashkil topgan zarduzlik maktablari uzlarining tukish usullari gullarning, nakshlarning kichikligi va maxobatliligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Bu erda ayniksa Buxoroda tashkil topgan zarduzlik fabrikasi turli-tuman zarduzlik maxsulotlari ishlab chikaradi.

Zarduzlikda oltin va kumush suvi bilan xallangan, shuningdek zanglamaydigan ingichka metall simlar, xallangan ip (zar ip)lardan foydalanib kashta tikiladi. Kashta guli shakli avvalo, karton, charmdan kirkib tayyorlanadi, u kashta tikiladigan matoga tikib yoki elimlanadi, ustidan kashta tikiladi. Sim zar ip kashta tikiladigan matoning orkasiga utkazilmaydi (gul, naksh, karton, tasma, ipga urab ishlanadi, keyin kashta matosiga urnatiladi). Kiyimlar (bosh va oyok kiyimlari xam) bezak berish ashyolari

zarduzi kashta bilan bezatiladi.

Surxon voxasida xam zarduzlik san'ati rivojlangan, ayniksa Boysun, Denov, Sariosiyo va Uzun tumanlarida maktablar mavjud. Bu maktablarda zarduzlik sir-asrorlari urgatilib kelinmokda. Fabrika maxsulotlarida zarduzlik usulida tayyorlangan kashtalarga oltin va kumush rangidagi ipak va sun'iy ipak, shuningdek sun'iy kimyoviy tolalardan kuprok foydalaniladi.

1915 yili Amir Olimxon davrida Buxoroda kushbegi Mirzo Urganjiyning uyida podshoxlik ustaxonasi tashkil etilgan. Unda ishning kam yoki kupligidan kat'iy nazar 20 tadan 40 tagacha ustalar ishlagan. Ustaxonalarga ustakor boshchilik kilgan. Ustakor tajribali tarxkashdan (ya'ni naksh chizuvchi usta) kushbegi tomonidan saylangan. Bulardan biri korovulbegi Salim ustakorlik lavozimida ishlagan. Sung esa Shoiddin va Abdushukurlar tarxkash bulgan. Ular zarduzlarga ish bergan uz vaktida ishlarni bajarilishini nazorat kilgan. Ustalar barkut shoyi ip va boshka xom-ashyolarni tarkatib turgan. Fakat ustakor kalobatunni, ya'ni, kimmatbaxo zar ipni kushbegi idorasi ichida tayinlangan maxsus Mirzo kalobatungidan olgan. Ustalar azondan shomgacha ishlagan, ularga malakalariga kura ish xaki tulangan. Bayram kunlari oksokol ustalarga pul xaida buyumlar sovga kilingan.

Bitiruvchi tamonidan tanlangan mavzuning dolzarbligi shundaki, 2013 yil Uzbekiston uchun isloxatlarni erkinlashtirish va chukurlashtirish – tarakkiyotning asosi va kafolati, iktisodiy va ijtimoiy masalalarni xal etishning muxim sharti ekanligini yana bir bor tasdikladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maksadlaridan biri esa mustakillikdan keyin, uzbek xalq amaliy bezak san'atining rivojlanishi va shu erlik san'at ustalarining yo`qolib ketayotgan xalq amaliy bezak san'ati turlarinin rivojlantirishda kushayotgan xissalari tugrisida gap boradi.

1991 yil Uzbekiston erishgan mustakillik uzbek xalkining milliy uzligini anglashga, uning ma'naviy dunyosiga, demakki, san'atiga xam bevosita ta'sir kursatdi.

Ijod erkinligi, Mustakil Uzbekiston fukoralarning ma'naviy va ruxiy kadriyatlar baralla xakkoniy tarzda va turmushning badiiy ifodasida uz aksini topdi. Iste'dodli

Xalk Amaliy bezak san'ati ustalarining imkoniyatlarini chegaralab kuygan yarim rasmiy cheklovlar buzib tashlandi, oldindan Uzbekiston san'atiga xos bulgan badiiy fantaziyaga va chinakam she'riyat ularda uygondi.

Aniqroq qilib aytganda O'zbekiston xududida bugungi kunda dadil qadamlar bilan rivojlanib borayotgan amaliy bezak san'ati, ya'ni zardo'zlik san'ati xakida o'z ta'surotlarimizni bermokchimiz.

Shu sababli Bitirvu Malakaviy ishining maksadi sifatida aytishimiz mumkin, asrlar maboynida yigilib kelayotgan san'at turlari va ularning yunalishlarini xozirgi zamon xalq amaliy bezak san'atiga ta'sirini kurishdan iborat xalos.

Bitiruv malakaviy ish rejasi: Kirish: Asosiy kism – asosiy kism uz tarkibiga uchta bulimni olgan bulib: Xulosa kismi foydalanilgan adabiyotlar va ilyustratsiyalar ruyxati (kompyuter varianti) dan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda biz bir kancha adabiyot va manbalardan foydalandik. Ularning kupchiligi asosan gazeta va jurnallarni tashkil kiladi. Shuning bilan birgalikda Xorazmlik zardo'z ustalarining ustaxonalarida suxbatlar uyushtirildi. Lekin shunga karamasdan mavzu ustidagi ish jarayonida asosan rus tilida chop qilingan bir kancha manbalar kurib chikildi.

Jumladan:

Grube E. ning «Dekorativnoe iskusstvo epoxi timuridov v Tsentralnoy Azii»¹, Pugachenkova G.A. va Rempel L.I. larning «Ocherki Iskusstvo Sredney Azii»², «Istoriya iskusstv Uzbekistana»³, Xodjaev S., ning «Narodnoe dekorativnoe prikladnoe iskusstvo Uzbekistana»⁴, Baratova Sh ning «Uzbekskaya traditsionnaya vishivka kontsa XIX — nach. XX vv. Tashkent.»⁵, Chepelevetskaya G .L ning

¹Грубе Э. Декоративное искусство эпохи тимуридов в Центральной Азии // Материалм международного симпозиума по искусству Центральной Азии в эпоху тимуридов. М., 1969.

² Пугаченкова Г.А. ва Ремпель Л.И.«Очерки Искусство Средней Азии» - М. 1982 г.

³ Пугаченкова Г.А. ва Ремпель Л.И.«История искусств Узбекистана» - М. 1965 г.

⁴ Ходжаев С.«Народное декоративное прикладное искусство Узбекистана»

⁵Баратова Ш. Узбекская традиционная вышивка конца XIX — нач. XX вв. Ташкент. Санъатшунослик фанлари номзодлиги учун тайёрлаган диссертациядан (чоп этилмаган) маълумотлар олинган.

«Suzani Uzbekistana⁶» va «Iskusstvo Sovetskogo Uzbekistana⁷», umumiy taxrir ostida «Uzbekiston san'ati⁸» va bir kancha san'atshunoslarning katologlari, makolalaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadiga zardo`zlik san'atining rivojlanish davrini ko`rsatish emas balki, mustaqillikdan keyingi yillarda bu san'atning qadimgi turlari va shakllarini qaytadan tiklash xolatlarini misollar keltirish bilan ko`rsatishni lozim topdik.

1990 yillarga kelib, an'anaviy kashtachilikning keng tarqalgan turi zardo`zlik qayta tiklandi. An'anaviy urfodatlar va marosimlarning tiklanish jarayonida zardo`zlik buyumlari turli maqsadlarda qo`llanila boshladi. Zardo`zlikni chopon, to`n, do`ppi, peshonaband, belbog`, qiyiqcha, nimcha kabi o`zbek an'anaviy liboslarining ajralmas qismiga aylandi deyish joiz. Shu bilan birga, mahobatli shakldagi zardo`zi buyumlar, ya'ni, mavzuli pannolar, teatr pardalari hamda sovg'a buyumlar, ignadonlar, ko`zoynak g`ilofi, upalik sumkachalarini ushbu san'at turiga xos bo`lgan usullarda bezatish keyingi yillarda keng rivojlandi.

Buxoro, Andijon, Namangan, Farg`ona, Toshkent, Samarqand, Urgut, Qarshi, Jizzax shaharlari, Surxondaryo viloyati zamonaviy zardo`zlik san'atining markazlaridir. B. Jumaev, S. Akbarova, T. Sodiqova, G. Bozorova, G. Pirimqulova, M. Habibova, G. Nurtoeva, M. Muhitdinova, D. Tosheva va boshqalar zamonamizning usta zardo`zlaridir.

Buxorolik B. Jumaev azaldan shu kasb bilan shug`ullanib kelgan zardo`zlar oilasida tug`ilgan bo`lib, uning ijodiy shakllanishiga mashhur usta — zardo`z N.Aminov katta ta'sir ko`rsatgan. U uzoq yillar Buxoro zardo`zlik korxonasida bosh rassom vazifasida ishladi. 1995 - yilda B.Jumaev rafiqasi M. Jumaeva bilan birgalikda XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid Buxoro zardo`zlik san'ati maktabini tiklash va rivojlantirish maqsadida markaz tashkil etdi. U zarboft mato sifatida asosan baxmaldan, tikish uchun esa Hindiston, Eron, arab mamlakatlaridan olib kelinadigan turli xildagi zar iplardan foydalanadi. Uning asarlarida to`pbarggul, palma barglari,

⁶Чепелевецкая Г. Л. Сузани Узбекистана. Ташкент, 1961.

⁷Чепелевецкая Г. Л. .«Искусство Советского Узбекистана» - Т.: Г.Гулом, 1988 г.

⁸«Узбекистон санъати». Умумий тахрир остида.- Т.:Шарк, 2001 й.

gultuvaklar, bodomgul, jimjimador yozuvlar, handasaviy naqshlar, me'moriy shakllar asosiy naqsh turlari vazifasini bajaradi. Zardo`zi usulida tikish murakkab, ko`p bosqichli jarayonni o`z ichiga oladi.

Zotan, "zardo`zi zamin do`zi" — bezak zaminini to`ldirib tikish, "zardo`zi guldo`zi"— qog`ozdan kesilgan naqshli andozani matoga qo`yib zar ip bilan tikish, "zardo`zi guldo`zi zamindo`zi" — yuqoridagi ikkala usul uyg`unlashtirilgan qurama tikish, "zardo`zi berishim do`zi" — qurama tikish usuli, "zardo`zi pulakcha do`zi" — pistoncha qadab zar tikish shular jumlasidandir.

B. Jumaevning "Buxoroyi Sharif" (1997), "Qo`shtovus"(1998), "Gultuvak"(1998), "Bahovuddin Naqshbandiy" (1997), "Alisher Navoiy"(1998) mavzularidagi devoriy pannolarining yuqori darajadagi texnik ijrosi hamda muallifning o`ziga xos uslubi va badiiy an'analarning uyg`unlashganligidan dalolat beradi. Ustazardo`z Respublika To'var ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi o`tkazadigan an'anaviy "Tashabbus 97" tanlovida "Yilning eng yaxshi hunarmandi"<sup>9</sup> nominatsiyasi bo'yicha 1o`rinni egalladi.

Buxorolik chevarlar D.Tosheva, M.Habibova, N.Ergasheva, V.va N.Sa'dullaeva¹⁰lar zardo`zlik san'atining "zardo`zizamindo`zi", " zardo`ziguldo`zi, " zardo`zi berishimdo`zi ", "zardo`zipulakchado`zi" singari an'anaviy gurlariga amal qilish bilan birga, turli xildagi choklarni tikish mahoratini puxta egallamokdalar. Ular uncha katta bo`lmagan pannolar, shuningdek, to`n, nimcha, shippak, elpig`ich, do`ppi, hamyon, belbog`, tumordon, ignadonlar tikib bezatadilar. Shuni qayd etib o`tish joizki, baxmal, chiy duxoba, satin, atlasdan tayyorlangan zardo`zlik buyumlarining tashqi ko`rinishi qanchalik hashamatli bo`lmasin, ularning naqsh doirasi juda cheklangan bo`lib, asosan XIX asr oxiri — XX asr boshlariga taalluqli Buxoro zardo`zligiga xos bo`lgan naqshlar bodomgul, to`pbarggul, guldonlar, to'vus, kitoba nusxa singari vositalardan iboratdir. Naqsh solinadigan asos muhim ahamiyatga molik bo`lganligi sababli, chevarlar tagzamin uchun ko`pincha to`qqizil

⁹ Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 2т.-Т.; «Санъат» 2001.

¹⁰ Фахретдинова Д.А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. - Т.; изд. литературы и искусства им. Гафура Гуляма.

yoki ko`k baxmal ishlatadilar.

Samarqandlik chevarlar M.Faxrieva va M.Muhiddinovaning ijodi uchun ham to`n, nimcha, govrapo`sh, do`ppi, hamyonlarga kashta tikish xosdir. Ular zardo`zi buyumlarini bezashda anorgul, tovus, to`pbarggul, gul nusxalaridan keng foydalanmokdalar.

To`qsoninchi yillarda O`zbekistonda bir qator zardo`zlik markazlari paydo bo`ldi. Taassufki, bu o`z navbatida zardo`zi buyumlari ijro tarzi darajasining badiiylik, an`anaviylik muammosini keltirib chiqardi. Mahalliy aholi orasida talab katta bo`lgan buyumlarning aksariyatining sifati past bo`lib qolmoqda.

Biroq zamonaviy zardo`zlik markazlarining soni sifatini aks etmagan holda, ana shu o`ziga xos an`anaviy hunarning badiiy darajasi muammosini yuzaga keltirmoqda. Masalan, jizzaxlik chevarlar S. Sarimsoqova va G. Bozorovalarning zardo`zi buyumlari keng iste`molchi xaridiga mo`ljallangan bo`lsa ham, ularning sifati yuqori darajada emas. Bu tikish usulida, choklar sifatida, qo`llanilayotgan naqsh nusxalarishshg sodda va jo`nligi hamda mahalliy maktab an`analarining naqsh tizimiga har doim ham rioya qilmasliklarida namoyon bo`lmokda. Zero, hozirgi davrda, N.Aminov va B.Jumaev singari xalq ustalarini shakllantirish, chinakam badiiy an`analarni o`rganish va saqlab qolish, jamiyatning estetik didini tarbiyalash muhim masalalardan biri bo`lib qolmoqda.

I. BOB. ZARDO`ZLIK SAN`ATI VA BAJARISH TEXNOLOGIYASI

1.1. Zardo`zlikda ishlatiladigan zaruriy ashyo va asbob-uskunalar

XIX—XX asr boshlaridagi zardo`zlik ishida chetdan keltirilgan turli xil fabrika matolaridan ham foydalanilgan. Bizgacha etib kelgan zardo`zlik materiallarining juda ko`pchiligi, xususan, erkaklar choponlari chetdan keltirilgan barqutlardan tikilgan. Bular ichida baxmal birishim eng a`lo navi hisoblanib, to`nlar uchun faqat shundan foydalanganlar. Baxmali farangi deb atalgan rus barquti ham keng iste`mol qilingan. Bu gazmol g`arbiy Evropadan Rossiya orqali keltirilgani uchun baxmali zagronish<sup>11</sup> (chetniki) deb atalgan. Bunday barqutlar sidirg`a rang, yo`lyo`l, katakkatak, bosma gulli va hokazo navlarga ega bo`lgan. Sidirg`a barqutlarning ba`zi afzalliklariga qaramay, sho`x gulli barqutlar ko`proq xaridorgir bo`lgan. Barqutlar g`oyat rangbarang tusda bo`lsada, biroq qizil, binafsha, yashil va ko`k rangdagilari kishilarga ko`proq yoqqan. Qizil va binafsha rangdagi g`oyat tekis barqutlar ayollar va bolalar kiyimlarni uchun qo`llanilgan. Sof ipak barqutdan tashqari baxmali musi degan silliq, yarmi ipak barqut erkaklar choponidan boshqa barcha buyumlar uchun keng qo`llanilgan. Zardo`zlik gullari tushirilgan Buxoro baxmali joydor (jaydari) barquti nisbatan keng qo`llanilgan. Uning ikki rangdagisi, ya`ni to`q qizil va to`q yashil tusdagilari jul va poyafzal tikishda ishlatilgan.

Zardo`zlik uchun barqutdan tashqari shoyi, atlas, doka, surp, movut, jaydari olacha va nihoyat, teridan foydalanilgan. Buxoroda ko`p miqdorda ishlab chiqariladigan jaydari tekis shoyilar kabi turlituman navdagi barcha shoyi gazlamalar ayollarning ustki kurtkasi, erkak va ayollar kiyimlarining ayrim qismlari (ro`mol va belbog`lar) tikishda ishlatilgan. Erkaklar zarboft to`nlarini tikishda shoyi kam qo`llanilgan, ayniqsa silliq yoki yo`lyo`l o`rusiy shoyisi mutlaqo yaroqsiz hisoblangan. Atlas buyumlarga zardan gullar tikilmagan, bu, ehtimol, atlasning zarga chidamsizligidan, sitilib ketishidan bo`lsa kerak. Sidirg`a va gulli atlasdan, asosan, ro`mol va belbog`lar tikilgan. Buxoro zardo`zligida dokadan faqat salla qilingan.

¹¹ Сухарева О.А. История Среднеазиатского костюма. Самарканд (2 половина XIX – начала XX века). – М. : Наука, 1982 г.

Buxoro shahar ahlining katta qismi fabrikada to`qilgan turli navdagi dokadan oq rang salla o`ragan. Zardo`zlyk sallalar ichida Istambul (aftidan Angliyaniki bo`lsa kerak) dokasidan qilingan salla keng qo`llanilgan. Uzining mahkamligi, mayinligi bilan ajralib turuvchi bu gazmolni doka misqoniy yoki doka xanjariy deb atalgan. Barqutga nisbatan surp buxoroliklar turmushida juda kam qo`llanilgan.

Zardo`zlikda surpdan faqatgina chakmon, jul, onda - sonda poyafzal tayyorlashda foydalanilgan. Faqat erkaklar ustki kiyimlari tikishda jaydari bilan bir qatorda hindlarning kashmiriyi singari chetdan keltirilgan movut keng qo`llanilgan.

Buxoro ahlining faqat oliy saroy qatlamlarida mavjud bo`lgan kashmir gazmollaridan qizil, ko`k, yashil to`n va sallalariga zardan gullar tikilgan. Jaydari movutlar zardo`zlik uchun ishlatilmagan. Yarim shoyi jaydari olacha gazmoli zardo`zlikda deyarli barcha buyumlar tayyorlashda ishlatilgan. Undan asosan uyro`zg`or buyumlari: so`zana, takiyapo`sh, joynamoz, lo`labolishlar jildi tikilgan. Olachadan erkaklar choponi kamdankam tikilgan. U asosan, ayollar va bolalar kiyimi tikishda ishlatilgan. Uzining yuqori sifati bilan ajralib turuvchi Qarshi olachasi zardo`zlik uchun eng qulay gazmol hisoblangan.

Usta Mullo degan qarshilik ustaning olachalari, ayniqsa mashhur bo`lgan. Turli - tuman ranglardagi sidirg`a olachalar zardo`zlikda keng qo`llanilgan, biroq sham`iy olachasi zardo`zlarning eng sev asosiy xom ashyo bo`lib hisoblangan. Gazmollarga gul tushirish uchun foydalaniladigan zar va kumush iplar tayyorlash tarixi g`oyat uzundur. Bu usul qadimgi Misr va Vaviloniya (Bobil)da ko`pdan ma`lum edi. Dastlabki paytlarda «o`rma oltin¹²» deb atalgan ingichka oltin sim ishlab chiqarilar edi.

So`nggi yillar ma`lumotiga ko`ra, bu mahsulot eng ko`p ishlab chiqarilgan joy Dehli shahri bo`lib, Hindiston chet ellarga shu mahsulotni ko`plab chiqarar ekan. Oltin iplarning bir navi sheroziy deb atalganiga asoslanib, u Erondan keltirilganini taxmin qilish mumkin.

Biroq Buxoro zardo`z ustalarining ma`lumotlariga binoan XIX asr ikkinchi

¹² Грубе Э. Декоративное искусство эпохи тимуридов в Центральной Азии // Материалм международного симпозиума по искусству Центральной Азии в эпоху тимуридов. М., 1969.

yarmidan boshlab zar iplar faqat ysha Moskvadan keltirilgan. Bundan bir oz muqaddam esa bu ip Angliyadan keltirilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Sharqdan Rossiyaga zar iplar XVII asr boshlarida keltirilar edi. Bu davrda Moskva podshohlarining saroylarida nemis ustalari yordamida zar va kumush iplar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi. 1623—1630 yillarda rus ustasi simgar Yuriy Kovalev¹³ nomi ham tilga olinadi.

Buxoro bozorlarida o'nlab navdagi zar va kumush iplar keltirib sotilardi. G'oyat momiq zar tolalar buxorolik zardo'zlar tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo'lib, u goh zar, goh kumush ip o'rnida qo'llanilavergan. U yoki bu navni ajratish zarurati tug'ilib qolsa zar ipga tilla, kalyobatun, kumush ipga kalyobatuk safed (oq) deb atalardi.

Kalyobatun ingichka metall ip bo'lib, shoyi ipga puxta o'ralgan.' Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasini oz emas, ko'p emas 84 protsentgacha bo'lgan sifati ishlatilgan. «Tilla» kalyobatun qilish uchun sim ipga tilla suvi yugurtirilgan.

Kalyobatunning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo'lgan. XIX asr 30—70 yillarda tikilgan buyumlardagi zar ip ko'p hollarda turlicha tovlanuvchi sariq, ya'ni tillarang ipdan yigirilgan. 80yillarda to'q sariq tusdagi ipak ip qo'llanilgan. U matoning rangi unniqqan joyida zarrin ip bilan birgalikda tikilgan chog'da ko'zga yaqqol tashlanib turgan.

1990 - yillar zardo'zligida esa to'q sariq tusdagi shoyi ip bilan qo'shib tikiladigan tillarang ip iste'molda saqlanib qolgan, shu bilan bir qatorda qizg'ishsariq va yarqiragan qizil tusga asoslangan zar tolalar ham paydo bo'lgan. Shu tariqa turli rangdagi iplardan tashkil topgan kalyobatun galmagaldan birgina buyumning o'zida uchrayvergan. 1900 - yillar davomidagi zardo'zlikda alvon tusli ipni to'q jigarrang va och jigarrang tusdagi iplar egallaydi.

XX asrning 10 - yillaridan ipak kalyobatunning rang - barangligi barham topadi va xuddi XIX asr 80 - yillaridagi singari to'q sariq tusdagi iplar ishlatila boshlanadi. XX asrning 10 - yillariga kelib, paxtalik sariq ipga qo'shib yigirilgan

¹³ Фахретдинова Д.А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. - Т.; изд. литературы и искусства им. Гафура Гуляма.

xiyla past navdagi zar ip paydo bo`ladi. Bu xildagi ip bilan erkak va ayollarning bosh kiyimlari tikidgan. Boshqa turdagi har qanday zardo`zlik buyumlari oliy nav zar iplarda tikilavergan.

Oq va tilla rang tusdagi yassilangan kumush tola sim deb atalib, u Buxoro zardo`zlari tomonidan keng qo`llanilgan. Kalyobatun bilan sim buxoro zardo`zligining asosiy xomashyosi hisoblangan.

Ayniqsa, kalyobatun XIX asrning eng boshidan shu paytgacha bo`lgan davrga oid barcha buyumlarda uchraydi. Hatto bu nav ip Buxoroga dastlab keltirilgan 1893 yillarga oid zardo`zlik buyumlarida ham uchraydi. Shundan keyin ham bu ikki tur ipning keng iste`mol qilinganini ko`ramiz.

1893 yildan keyingi Buxoro zardo`zligida ayrim gul va kashtalarda bir necha nav zar iplar qo`llanilgan. Bu ip kalyobatuni yaknaxio`rusi halli baland, ya`ni «obdon tilla suvi yugurtirilgan bir yo`lli rus kalyobatuni» deb atalgan. Bu yp odatdagidan ancha yo`g`on bo`lib, tilla suvi yurgizilgan sof kumush simni alvon tusli ipak ipga qo`shib yigirilgan. Bu ipak ipning nomi esa kalyobatuni jingili o`rusi, ya`ni «jingalak rus zar ipi» deb atalgan.

Tarkibi 84 % li kumush tolaga obdon tilla suvi yugurtirilib, to`q sariq yoki qizg`ish - sariq ipak ipga qo`shib yigirilgan. Uning xiyol g`ijim, to`lqin - to`lqin sathiga ega bo`lishi silliq sathli odatiy zar ipdan farqlab turgan. Sherozi o`rusi du toba, ya`ni «sherozi o`rusi qo`shtanobi» deb atalgan ip ham tilla suvi yugurtirilgan yuqori nav kumush toladan qilingan.

Zar ipning likkak turi shoyi ip qo`shmay pishiq yigirilgan ingichka simdan iborat bo`lib, u Buxoro ustalari tomonidan ondasonda ishlatilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya fabrikalarida chiqarilgan zar iplar keng qo`llanila boshlandi. Buxoro bozorlarida dastavval Malyutin fabrikasining iplari pay do bo`lgan edi. Biroq yo`g`on, zardo`zlikka yaroqsiz bu ip keyinchalik «Alekseev va K» fabrikasida chiqarilgan ancha mayin va tikishga qulay ip tomonidan batamom siqib chiqarildi. So`ngra esa V. Vishnyakov va A. Shamashinlar¹⁴ning savdo uyi ishlab chiqargan zar iplar paydo bo`ldi. Turli - tuman fabrikalardan chiqqan barcha

¹⁴ <http://www.ziyonet.uz/ru/library/book/9283/libid/40601>

zar iplarning bahosi bir xil bo`lib, ularni Buxoro bozorlarida attorlar sotishgan.

Zar iplardan tashqari zardo`zlikda jaydari rangdor ipak iplardan ham foydalanilib, ular, asosan, gullarga qo`shimcha oro berishda hamda matoga zar yo`l tushirishda ishlatilgan. Bunday ishlar uchun zarning rangiga yaqin bo`lgan sariq, to`q sariq, qizg`ish sariq, jigarrang, ayrim hollardagina boshqa rangdagi ipak iplardan foydalanilgan. Ayniqsa, birishmi tillo chor tor, ya`ni «to`rt yo`lli zar ip» degan eng yaxshi sifatli ipak ip mashhur bo`lgan. Har bir ipak ip ikkiga bo`linib, ikkita qilib eshilgan. Kumushrang gullar tikish uchun oq ipak ipdan foydalanilgan.

XIX asrning 90 - yillari boshida zardo`zlikda rasponi pechak g`altak ip paydo bo`ladi. Ranglar tovlanishi xuddi ipakdagi singari bo`lib, faqat unga qizil va to`q qizil ranglar ham qo`shilgan. Ko`p o`tmay o`ta qimmatbaho zardo`zlik buyumlarida ishlatiladigan ipak o`rnini mana shu g`altak ip egallaydi. Ba`zi hollarda bitta buyumning o`zida ham u, ham bu ipni kuzatish mumkin.

Zardo`zlikda quyidagilar qo`llanilgan: barqut va ipak aralashma matosi, pulakcha deb ataluvchi o`rtasi teshik mayda oq, sariq piston (pirpirak)lar, mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora sir va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan zarhal to`g`alar, turli nav oltindan zardo`zlarning o`zlari yasagan zargarlyk taqinchoqlariga o`xshab ketuvchi olmos qubbalar deb atalmish bo`rtma naqshlar, dur va qimmatbaho toshlar.

Zardo`zlik sulolasi unchalik KO`P emas. Chamvaqat hajmlarining kattakichikligi bilangina birbiridan farq qiladi. Korcho`b uzunligi 320 santimetrgacha bo`lgan ikki tengyonli silliq yog`och dastadan iboratdir.

Korcho`bning uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin bo`lgan. Chambarakka bo`zdan qilingan kerish, ya`ni ta`var tortilib, u tikib tayyor bo`lgan buyum bilan birga chiqarib olingan. Qorcho`bda chordona qurgan holda erda o`tirib ishlangan.

Ipni dumaloqlash (o`rash) uchun qattiq yog`ochdan qilingan, uzunligi 20 santimetrdan bo`lgan, to`rt qirrali patiladan foydalanilgan. Ichiga qo`rg`oshin solib vazminlashtirilgan bunday patilalar ipni zich qilib o`rashni ta`minlagan.

Zardo`zlik ishi chog`ida ikki xil angishvonadan foydalanilgan. Biri oddiy

fabrika angishvona bo`lib, uni qo`lning o`rta barmog`iga, ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalib, chap qo`lning o`rta barmog`iga taqilgan. Ikkinchi angishvonaning ba`zan fabrikadan chiqqani ham bo`lib, u metaldan yasalgan. Ikki xil qaychi bo`lgan: biri qaychi ushtur gardan, ya`ni «tuya bo`yin qaychi» bo`lib, egikligidan tuyaning bo`ynini esga soladi. Ikkinchisi oddiy uy-ro`zg`orda ishlatiladigan metall qaychidir. Ignalarning fabrikadan chiqqan, o`rtacha kattalikdagilari ishlatilgan.

1.2. Zardo`zlikda ishlatiladigan naqshlar va ularning tuzilishlari

Zardo`zlik san'atida qo'llaniladigan naqshlarning mutlaq ko'pchiligi islamiy bo'lib, geometrik va shunga o'xshagan naqshlar undan keyingi o'rinda turadi. Islamiy naqshlar turlituman dastagullar, yaproqlar, butoqlar, daraxtlar, shoxlar, gulli guldonlardan iboratdir. Meva shakllaridan tuzilgan naqshlarda biz marvarid, turunj, anor, olcha, uzum (I — III va V — VII) larni ko'ramiz. Odam va hayvonot tasvirini inqilobdan oldingi Buxoro zardo`zligida sira uchratmaymiz. Bunday naqshlar faqat inqilobdan so'nggi davrlarda, u ham bo'lsa ayollarning uy ichida kiyadigan buyumlarida, xususan, do'ppilarda paydo bo'ldi. Masalan, bunday do'ppilarning tepa qismida tovu, ba'zilarining girdida qator qilib o'rdaknamo qushlar tasviri tushirilgan. Bunday buyumlar faqat maxsus buyurtma asosidagina tikilib, bozorda sotuvga chiqarilmaganini zardo`zlarning o'zlari qayd etadilar.

Buxoro zardo`zligida o'ziga xos va puxta ishlangan atamalar bo'lib, ular zardo`zlik sharoigining ayrim bosqichlarini anglatishdan tashqari bu san'atning uzoq davrlik taraqqiyot jarayonidan ham darak berib turadi. Gullar turidagi naqshlar uchun gul atamasi, barglar turidagi naqshlar uchun barg atamasi nom bo'lib qolgan. Bir qancha naqshlar guruhi uchun umumlashtiruvchi bo'lib xizmat qiladigan bunday atamalardan tashqari gul turidagilarga alohida, barg turidagilarga alohida mansub bo'lgan, aynan shularning o'zi uchun xos hisoblangan yana bir qancha nomlarni uchratishimiz mumkin.

Masalan, guli chorbarg — to'rt yaproqli gul, guli shishbarg—olti yaproqli gul, guli hashtbarg — sakkiz yaproqli gul, lolagul va hokazolar. Yaprog'i sakkiztadan ortiq bo'lgan gullarni guli sadbarg — yuz yaproqli gul yoki guli koshg'ariy — qashqargul deb atalgan. Keng hajmdagi gullar guyai kosagul yoki guli qal'agi degan nomlar bilan yuritilgan.

Barg turidagi naqshlar quyidagilarga bo'lingan: donadona yaproqlar — yakkabarg, juft juft yaproq — dubarg, uchtalik yaproqlar — se barg, majnuntol yaprog'i — bargi majnunbed va hokazolar.

Aksariyat ornamental gul turlari o'zlarining uzoq davomli rivojlanishlarida shu qadar ko'p uslublarga va geometrik ko'rinishlarga ega bo'lganki, hatto ularning

dastlabki islamiy shakllarini ilg`ab olish mushkul. Zamonaviy ustalar, ularni xohlagan maqomda talqin qila boshlaganlar. Masalan, to`rt yaproqli gul naqshi xuddi ana shunday o`zgarishni boshidan kechirib, endilikda u kungirador peshtoqni eslatuvchi chor madoxil (to`rt darvoza) deb atala boshlandi. Agar bitta yaproqli gul naqshi ikkinchisiga ustmaust qo`ndirilgan bo`lsa, uni chor madohili durun ba berun deyiltan (madoxil arabcha — kirish degani). Bunday gullar ko`pincha mayda islamiy naqshlar bilan tikilib, eng uchida har ikki tomonga qarab turgan ikki dona yaproq tasviri bo`lgan. Odatdagidek, bu o`rinda ham islamiy naqsh o`zi'uchun mutlaqo yot bo`lgan nom bilan atalgan.

Zardo`zlikda keng rasm bo`lgan, chekkalari xiyol yuqoriga qayrilgan nozik yaproq naqshi bargi shullukiy — zulukbarg yoki qisqacha shullukiy deb ataladiyu, bari bir u yaproq shaklini o`zida saqlab qolaveradi. Islamiy naqshlar, o`z navbatida boshqa tur naqshlarga ham ta'sir qilgan deb taxmin qilish mumkin. Masalan, yaproqlari nur yo`nalishida joylashgan ko`pbargli gul naqshidan nishon¹⁵ deb ataluvchi tamg`a belgisi bilan qo`shib yuboriladi.

Bu atama XIX asrning so`nggi o`ttiz yilligida yuzaga kelgan bo`lishi mumkin. Uning rus ordenlariga o`xshab ketishini shu bilan izohlasa bo`ladi.

Demak, bu naqshlar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida zardo`zlikka kirib kelgan deb aytish mumkin.

Kelib chiqishi turlicha bo`lgan gul turlaridagi bunday o`zaro bog`liqlik islamiy naqsh va ularning atamalaridagi o`ziga xos xususiyatlarning yo`qolyab ketishiga sababchi bo`lgan. Urta Osiyo chorvador qabilalari milliy naqshlarida keng tarqalgan qo`chqor shoxi tagalak, aftidan, bir qancha o`tro;qdehqon xalqlar san'atidagi islamiy naqshlarga kuchli ta'sir qilgan. Natijada novdalardan biri yangi nom bilan birga o`ziga xos uslublashuvga ham ega bo`ldi. Ba'zi hollarda u haqiqatan ham ko`chqor shoxining shakliy tasvirini eslatadi. Zardo`zlikda tagalak usuli kashtalarning orasidagi bo`sh qolgan tagzaminni to`ldirishda foydalaniladi. U o`rama ko`rinishida, ba'zan bir juft shoxning birbiriga o`ralib turganiga o`xshagan bo`lsa, boshqa bir joyda u (ko`pincha kattakatta joylarni to`ldirilganda) xuddi uzum zangidagi naychani eslatadi.

¹⁵ http://www.artmuseum.uz/gold_sewing.html

Bunga misol tariqasida ancha aniq qilib tikilgan islamiy naqshli XVIII asr etiklarini keltirish mumkin. Tagalak yo`lidagi naqshlarni ham shunda yaqqol ko`ramiz. Gullarning qirg`oqlarini aylantirib tikilgan ipda zardo`z birato`la tagzaminni ham tagalak nusxa kashta bilan to`ldirib chiqqan.

Chinnigul (xrizantema¹⁶) va qashqargul singari kashtalar nomi qanday kelib chiqqanligi haqida aniq mulohazalar mavjud. Bunga, aftidan, xitoy chinnisidagi rasmlar asos bo`lgan bo`lsa, ehtimol. Xitoy chinnilari Urta Osiyoga ham keltirilar va g`oyat qadrlanar zdi.

Hatto XIX — XX asrlarda Buxoroning shahar boylari uyida ular keng rasm bo`lgan edi. Kalak (ayollar poyafzalining tovoniga taqiladigan nag`al) guli ham xitoy chinnilaridagi naqshlardan olingan deb taxmin qilinadi. Mazkur gul xitoy chinnisida keng qo`llanilgan.

Biz ularni IX—X asr kulolchiligida VIII asr Rey¹⁷ sopolchiligi deb atalgan Eron sopolchiligida ham uchratamiz.

XIX asrning so`nggi o`ttiz yilida zardo`zlik gullarining nusxasi Urta Ooiyoga ko`plab olib kelingan rus fabrika gazmollaridan olingan. Sharq xalqlariga mo`ljallab to`qilgan gazmollar o`zlarining chiroyli ko`rinshpi, bo`yoqlari mollari bilan bemalol bellasha oladigan mollardagi yirik - yirik gullar zardo`zlikka ham ko`chib o`tgan va ularni nomlaridan bilib olsa bo`lardi. Guli qal`agiy (qal`a so`zidan) nomi zardo`zlarga yaxshi tanish bo`lib, uning nusxasi Orenburgdan keltiriladigan rus gazmollaridagi guldan olingan. Buxoro savdogarlari chegarachi posbonlar bilan qo`riqlanadigan bu shaharga mol olgani borar edilar.

Rang-barang naqshli, sirkor me`moriy yodgorliklar, ulardagi turlituman geometrik naqshlar zardo`zlik gullari va kashtalarini ijodiy jihatdan boyitishdagi boy materiallar bo`lib xizmat qiladi. Shu siraga kiruvchi mehrob naqshi odatda uchli ark ko`rinishga ega, kitoba naqshi yuzasiga chiroyli qilib arabcha yozuv bitilgan qator cho`zinchoq halqachalar bo`lib, ular turarjoy binolarining, masjid va madrasalarning devor bilan shifti tutashgan erida joylashgan bo`ladi. Qadimgi

¹⁶ http://www.artmuseum.uz/gold_sewing.html

¹⁷ <http://www.ziyonet.uz/ru/library/book/9283/libid/40601>

Buxoro me'morchilik yodgorliklari ham koshin degan gulning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan va hokazo.

Zardo'zlik kashtalarini chizuvchi gulbur ustalar boshqa namunalarga ko'rko'rona tahlid qilmay, atroflicha o'ylab ko'rganlar, o'z kasbhunarlarining an'analari va spetsifik xususiyatlari asosida ijodiy qayta ishlaganlar.

Kashta naqshlarining tuzilishiga qarab, zardo'z ustalar buyumlarni ayrimayrim guruhlariga 50'ladilar. Bezak gullarining joylanish tartibiga ko'ra choponlar bir necha turlarga bo'linadi. Darham (to'qima) turidagi choponlar butun yuzaning bir sidra gul naqshlari bilan to'ldirganligi orqali ajralib turadi.

Bunda turli kattakichiklikdagi rombalar, kvadratlar, to'g'riburchaklar va hokazolar yo'lyo'l shaklda qator tizilib, zich islimiy naqshlar bilan to'ldirib chiqilgan. To'rt yaproqli qubba — madoxil (madoxili durunbadurun), uch yaproqli qubba — se barg, uchto'rt yaproqchali buta va butachalari—barg yoki bargi shulluki, majnunbed (majnuntol), ayrim-ayrim joylashgan olti va sakkiz yaproqli gullar, aksariyat lola ana shu naqshlar sirasiga kiradi. Ko'pincha gul va yaproq naqshlari doira markazidagi gul a yulduz atrofida aylana (yoki salib) shaklida joylashib, geometrik shakllar tagzaminini go'ldirib turgan.

Bu tur naqshlardan yana biri darhami daraxt kompozitsiyasi o'lib, unda ham kashtalar bir tekis tushgan, faqat oldingilaridan serjiloligi bilangina aalib turadi. Gul tushiriladigan joy parshmay, bachkanalashmay, g'oyat erkin tarzda ik bir yagona manzaraga biriktiriladi. axt islimiy guli g'oyat uzun tanadan iborat bo'lib, unga gul va yaproqlar chatilgan, goho bo'lak shoxlardan tana hosil etilgan, goho esa har tomonga osilib turgan katta - katta sallagul (piongul)lardan tuzilgan (bu, fabrika zmolidan olingan bo'lsa kerak) chetlari qirq - keng yaproqlar juda ham o'ziga o'xshatib ishgan. Gullar qo'lda shunday erkin engil chizilganki, hech qanday rasmdan ko'chirilmagan va boshqa gulning takrori bo'lib qolmagan.

Libos bezashning bu turi ancha boy va dabdabador bo'lgan. Amirning qimmatbaho, to'y tantanalarda kiyadigan kiyimlari shu bezaklar tikilgan. Bunday choponlarni tikish gul blan katta ijodiy xayolot va tajriba talab qilshi, qattiq mehnat orqasida yuzaga chiqadigan bunday ishlar uchun ham ozmuncha harakat

qilinmagan.

Tayyor raomga tikish bo'yicha o'rtacha murakkablikdagi to'n larni tayyorlash uchun to'rt kishi bir oy ishlasa, darham xilidagi choponlar uchun o'n ikki odam uch oy mobaynida behad ko'p qimmatbaho ashyolar hisobiga ishlagan.

Zamindo'ziy va guldo'ziy tarzida bajarilgan darham kompozitsiyasi chopon, poyafzal va jullardan boshqa zardo'zlikka oid hech bir buyumda qo'llanilmaydi. Bu xildagi san'at namunalari bizgacha g'oyat oz miqdorda etib kelgan. Yuza bo'ylab bir tekisda har tomonga yoyilib turgan bir dasta gul aks ettirilgan choponlarni butador deb atalgan. Gulning o'zini esa buta deyilib, unda gulning poyasi va yaproqlari, majnuntol novdalari, xurmo shoxlari, turli kattakichiklikdagi girihlar, qo'sh bodom va hokazolar ifodalangan bo'lishi mumkin.

Bu tur kompozitsiyaga yana butadori tavqnok deb atalgan to'n ham kiradi. Bunday to'nlarning butun yuzasi buta naqshi bilan to'ldirilib, faqat elkasida—tavq (arabcha halqa) deb atalgan chiroyli gardishli turunji bo'lgan. Butadori chilyolak yoki jomi chilyolak deb atalgan to'nlari ham shular sirasidandir. Ularning tikiladigan butun yuzasi bir tekisda chilyolak degan halqachalar bilan to'ldirilgani uchun shunday nom bilan ataladi.

Butadori daraxt kompozitsiyasi ham butador tipidagi guruhga mansub bo'lib, aslida darhami daraxtning variantlaridan biri hisoblanadi. Darhami daraxtdan uning birgina farqi shundaki, bunda ma'lum bir oraliqda tik joylashgan daraxt tanasi to'xtovsiz takrorlanaveradi. Buta tikiladigan yuza bo'ylab to'g'rito'g'ri qatorlarga aksar holda shaxmat ko'rinishida joylashgan bo'ladi. Butador kompozitsiyasi ayollar libosida g'oyat noyob usul hisoblanib, u ko'proq katta yoshdagi erkaklar va bolalar buyumida qo'llanilgan. Bu kompozitsiyaning butadori tavqnok, butadori chilyolak va butadori daraxt deb atalgan turlari nisbatan kam, shunda ham katta yoshdagi erkaklar va bolalar liboslarida qo'llanilib, ayollar libosida mutlaqo qo'llanilmagan.

Davqur (davri qur — hoshiyalangan so'zining buzib aytilishi) deb nomlangan to'nlari g'oyat keng ko'lamda qo'llanilgan. Bunday to'nlarning eng uchlari, barlari va quyi qismlari qur hoshiyasi bilan aylantirib tikilgan, to'n elkasiga esa turunj naqshi gushirilgan.

Tavq turunji naqshlari rang turli - tumanligi va talqini bilan ajralib turadi, ular ham ko`rinishlari, ham katta - kichikliklari bilan bir - biridan farq qiladi. Ularning o`lchamlari diametrda 36x45 dan 48x56 santimetr orasida hisob qilinadi. Tavq turunjlarning tuzilishi sistemasi bo`yicha ularni ikki turga bo`lish mumkin. Birinchi tur turunjlariga yopch.ch halqa ichida tuzilgan kompozitsiyalar kiradi.

Eng keng rasm bo`lgan bu kompozitsiya yo umumiy markazga ega halqanamo kashtagullar bilan yoki oralari islamiy naqshlarga to`laoltiburchak qatlamlari bilan to`ldirib chiqilgan. Ba`zan bu oraliqlar trapetsiyanamo qator yo`llarga ajratilib, butalar naqshi bilan bezab chiqilgan. Doira ichiga ko`pincha olti yoki sakkiz qirrali yulduz (sakkiz qirrali yulduz ikki kvadratni biribiriga mindirib yasalgan) shakli tushirilgan bo`lib, markaziy qismida bo`rtma girihli halqa aks ettirilgan. Naqshlarning har bir qismi mayda gul, yaproq, butoq va xurmo barglari shaklida tikilgan. Yulduzli halqaning pastki qismida kashta bilan tikilgan yarimoy nusxasi deyarli har ikki buyumdan bittasida uchrab turadi. almashinib keluvchi gulli girih va butoqchalar kompozitsiyasi, guldon shakli ichiga joylashtirilgan, erga qaragan yarimoy halqasiga kiydirilgan murakkab islamiy kompozitsiyalardan iboratdir.

Urtasida doira shakli bor turunjlarning gardishi sirt tomonidan kungurular bilan aylantirib chiqilgan. Kungurular gardish qirradi bo`ylab, yakkabarg deb ataluvchi bir qator qilib tizilgan yakkayakka yaproqchalardan yoki bitta yaproq va bitta bodo^mcha shaklidan (gohida na`lak, ya`ni taqa shaklidan) tuzilgan. Ba`zan yakkayakka yoki turkumturkum holda keluvchi o`sha yaproqchalar ishtirokida ham turunjlard gardishini kungurador qilib aylantirib tikilgan. Gulchambar yoki o`rilgan yaproqlar ko`rinishidagi murakkab islamiy naqshlardan ham kungura yasalgan.

Juda kamdankam hollarda istisno qilmasa, aytarli hamma turunjlarning markaziy tik o`qi bo`ylab qo`shimcha bezak elementlari albatta, uchrab turadi. Yuqorida xurmo yaprog`i, odatda g`oyat jo`n shakldagi 3—5 ta yaproq yoki elpig`ich ko`rinishidagi mayda uzum zanglari joylashgan.

Turunjni bezab turgan elementlarning qanday gul shakli bo`lishidan qat`iy nazar toji gul nomi bilan ataladi, unga teskari tartibda joylashgan quyidagi naqshli bezak ka`bi gul (guldon) deb atalib, madoxil turidagi naqshlardan birining

uslublashtirilgan ifodasidan iborat bo`ladi.

Halqa mchiga olinmagan kompozitsiyali turunjlarning toji guli hajm jihatidan yirik bo`lib, gohida gul, xurmo naqshi bilan, ka'bi gul esa baland guldona bilan boyitilgan.

Turunjlardagi bu detallar tavq uslubiga oid naqshlar islamiy xarakterdagi naqshlarga asoslanganligini ko`rsatadi. Astasekin o`zgara borgan tavq naqshlari ko`pgina hollarda o`zining dastlabki islamiy shaklini yo`qotib, uning o`rnini geometrik shakl egallaydi. Islamiy talqinlarning o`ziga xos belgilari bo`lmish guldona va gulchambar endilikda yot unsurlargina bo`lib qoladi.

Davqur turidagi to`nlarning hoshiyasi (jiyagi) ham kashtalarining rangbarangligi bilan ajralib turadi: oddiygina islamiy butona`dan tortib eni 23—25 santimetrli murakkab va dabdabali islamiy kashtalarni ko`rishimiz mumkin. Oddiy jiyaklar oba deb atalgan ensiz yo`l bilan aylantiriladi. Qimmatbaho zardo`zlik buyumlarida jiyakning ichki tomonidan ham qo`shimcha kungura bilan aylantirib chiqilgan. Jiyakning ichki tomonidan obasi bo`lmay, faqat tashqir.. tomondangina obalansa, bunday jiyak oldi ochiq jiyak — ko`ripesh yala deb ataladi. Kashtasi boy va serbezak jiyaklar o`tgan asrning 80yillaridagi to`nlarda uchraydi. Jiyakning kashtasi turdajning naqshlariga mos bo`lishi talab qilinsada, amalda ko`pincha bunga rioya qilinmagan. Katta yoshdagi erkaklar, bolalar to`nlari, mursaklar, kamzullarni bezashda asosan davqur kompozitsiyasidan foydalanilgan.

Kulucha mursagi zardo`zlik bezaklarining tuzilishi jihatidan ikki guruhga bo`lingan: butadori chilyolak va davqur. Butadori chilyolak xilidagi mursaklarning faqat beligacha oldi va orqasidan kashtalar bilan bezatilgan. To`ndan farqli o`laroq davqur mursaklarining turunji ham elkadan, ham ko`krakdan tikilgan. Bunday mursaklarning chap barida, kuyiroqda, ko`ndalang bo`lib gul yoki butoq shaklida kashtasi bo`lgan. Mursaklar keng zardo`zi cholvorlar (poyjomalar) bilan kiyilgan. Ularga lampasga o`xshash kashtalar tikilgan, bu kashtalar ikki yon tomondagi yirmochlar bilan poyjomaning pochasini qamrab olgan. Old tomonning quyi qismida butoq, gul yoki turunj joylashgan. Mursakning belidan ooma bezakli feruza qadamali, ba`zan qimmatbaho toshlar, sirlar bilan bezatilgan vazmin to`g`ali belbog` to`qilgan.

Amir va uning amaldorlari bunday liboslarni shahardan tashqariga chiqqan kezlarida va turli tantanali marosimlarda zardo`ziy etik va oppoq - zardo`ziy salla bilan kiyganlar. Harbiy amaldorlar esa bunday libosni salla o`rniga chetlariga mo`yna solib tikilgan zardo`ziy telpak bilan kiyganlar.

Otlarning davriy usulida tikilgan jullari, xuddi to`nlar singari, amir saroy a`yonlarining tantanali kunlarda tutadigan buyumlari sirasiga kiradi. Ular ikki toifaga bo`linadi:

- 1) xosagiy — amirning o`zi foydalanishiga mo`ljallangan
- 2) in`omiy — tortiq xilidagi boshqa zaruriy ashyolar qatorida o`rin olgan.

Birinchi toifadagi jullar g`oyat boy naqshlangan, ko`pincha zargarlar tomonidan kumush va tillakori to`g`alar qadab bezatilgan, popuklari kumushband bilan o`ralgan. Bunday jullar zinpo`sh degan shohona egar yopqisi bilan birga qo`llanilib, yo`lda amir egardan tushgan chog`larda u egar ustiga tashlab qo`yilgan. Zinpo`sh ham davriy bilan bir xil barqutdan va bir xil tarhda ishlangan.

Ikkinchi toifa jullar ko`p miqdorda bozorda sotishga mo`ljallab yasalgan. Ular o`zlarining oddiy tikilishlari va gullari bilan farqlangan.

Jul ikki qismdan iborat: egar qoshiga kiygiziladigan to`g`ri burchakli kesmasi bor old — xoni zingoh qismi, hamda ot sag`risini berkitib turadigan ort — chakkikoshizin qiomi. Julning, tabiiyki, ko`proq ochiq, ko`zga ko`rinib turadigan qismlarida kashtalar mo`lroq bo`lgan. Suvoriy berkitib turadigan old qismining beeaklarni xiyla oddiy bo`lib, o`rta qismda chirs`yli, ^ejirim qaviqdan boshqa hech qanday bezakni ko`rmaymiz.

Gul va naqshlarining turlari jihatidan jullar ham bir necha qismga bo`linadi. Darham turidagi jullar guldo`ziy tarzida ham, tagzamini tilla yoki kumush iplar bilan bir eidge tnikilgan zamindo`ziy tarzida ado etilgan.

Tilla yoki kumush yuzalarda gullar teng qator qilib joylashtirilgan guldo`ziy zamindo`ziy tarzi yopqilar uchun eng ko`p qo`llaniladigan usul xisoblanadi. Barcha guldor yuza qandahor choki (tikishi) bilan tikilgan zardo`ziy buyumlarning yagona toifasi kandorido`ziy jullari bo`lib, ular ko`proq bozorda sotish uchun muljallangan.

Davri gardish deb atalgan jul guli darhami daraxt turlaridan biri hisoblanadi. Bunda daraxt yoki shox yirik jingalak butoq tarzida beriladi. Butoq uchida anorga o`xshagan, ammo zardo`zlar gul deb ataydigan yirik meva nusxasi ham bo`ladi. Bu toifa yopqilar doim guldo`ziypulakchado`ziy tarzida ado etilgan (tagzamini sim ipda tikilgan).

Davri gardish yopqilari XIX asrning 80—90 yillarida bozorlarda sotish uchun ko`p miqdorda tayyorlangan. Biroq o`sha asrning 40—50 yillarida ular sal bo`lmasa amirning shaxsiy buyumi sifatida foydalaniladigan zardo`ziy yopqining yagona turi bo`lib qolgan edi. Bundan ancha vaqt muqaddam davri gardish jaydari (buxorocho) shoyi barqutga yuksak sifatli zar bilan tikilgan. Ish sifati ham o`rta darajada bo`lgan. Davri to`la jullari odatda yirik gul qubbasi yoki yirik bodom shakli, goho qo`sh bodom shakli bilan bezatilgan. Naqshlar yopqining markaziy qismida, burchaklarida o`rin olgan.

Xuddi davqur turidagi to`nlarda bo`lganidek, gul naqshida ham dastlabki islamiy shakllar ozmi, ko`pmi yo`qolgan, ammo ka`bi gul islamiy talqinning asosiy belgilari saqlanib qolgan. Yopqilarda ka`bi gul naqshining joylashuviga g`oyat qat`iy ravishda amal qilingan: markaziy gul hamisha bor bo`yi bilan pastga qaragan bo`lgan, qolgan ikkitasi esa burchaklarga tomon yo`nalgan. Se gula jullari faqatgina amirning buyrug`iga binoan yoki unga in`om etish uchungina tikilgan. Uni sotish uchun bozorga olib chiqilmagan. Bunday jullar katta amaldorlarga hadya etilgan.

Zardo`zlar<sup>18</sup>ning guvohlik berishlaricha, bu toifa jullar XIX asrning 90-yillarida yuzaga kelgan. Biroq ular bundan ancha oldin paydo bo`lganini tasdiqlovchi dalillar ham yo`q emas XIX asrning birinchi choragi yoki ikkinchi choragining ayni boshlariga oid namunalarning birida mazkur toifa julning yaratilishiga asos bo`lgan namunasi mavjud bo`lib, undagi bezak gullar o`zlarining islamiy shakllarini saqlab qolganligi shundoq ko`rinib turibdi. XX asrning boshlarida jig`a davri deb atalgan yangi nusxadagi jul paydo bo`ldi. U yarim doira shaklida bo`lib, kashta, zargarlik kumush to`g`alar, bandiga tilla qoplangan zar popuklar bilan obdon bezatilgan. Bunday yopqilardan bizgacha etib kelmagan. Zardo`zlarning gapiga qaraganda,

¹⁸ http://magic.qirim.org/zoloto_mira/uzbekk.htm

ulardan boryo`g`i 5—6 tagina tikilgan ekan. Jig`a davriy juli se gula julidan ancha yuqori turgan. Xuddi to`nlarda bo`lganidek, se gula va jig`a davriy jullari uchun ham maxsus gul naqshlar tuzilgan, holbuki boshqa har qanday turdagi jullardan bitta rasm andozasiga qarab bir nechtadan ishlangan.

AMALIY ISH JARAYONINING BORISHI

II BOB. O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATIDA KOMPAZIYSIYANING O'RNI

Amaliy san'at degan so'zning lug'ataviy ma'nosi shuki, bu san'at turi amalda, ya'ni xayotda ishlatiladigan buyumlarga ko'llaniladi. Bu san'at odam muxitida va kundalik xayotida ishlatiladigan buyumlar yaratish bilan bog'liqdir. «Dekorativ san'at» deganda asosan «Amaliy san'at» tushuniladi.

Dekorativ san'at - badiiy bezalgan uy-ruzg'or buyumlari, binolarning badiiy bezatilishidan iboratdir.

Badiiy kulolchilik tiniq loydan uy-ruzg'or idishlarini yasashni inson qadim zamonlardayoq o'rganib olgan. Kulolchilik xunari Respublikamizning barcha xududlarida jumladan Xorazmda xam juda qadim zamonlardan beri rivojlangan. Xunarmandlar o'tmishidan, ganch, loydan ishlanuvchi tasvirlarning ajoyib namunalarini yaratganlar, kichik-kichik xaykallar kompozitsiyalarini yaratib, ularning sujetiga mexnat, dam olish payti, satirik portretlar, maishiy soxalar, xayvonlar tasvirlangan uyinchoklar asos qilib olinadi.

Uy-ruzg'or buyumlari kompozitsiyasi o'zining geometrik va o'simliksimon bezaklarining boyligi, xilma-xilligi, buyoqlar gammasining yorqinligi bilan ajralib turadi. Baxt ramzi sifatida feruza rang ko'p ishlatiladi.

Madrasa, machit, karvonsaroy, xammom peshtoklaridagi, bino ichlaridagi devor bezaklari buyoqlari bir umrga o'chmas mozaik kulolchilik asosida bezalgan bular uzbek millati, respublikamiz shaxarlariga o'ziga xos xusn berib turadi.

Amaliy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, juda rang-barangdir. Bu soxada ustun va eshiklardan tashqari, turli mayda uy-ro'zg'or buyumlari kursichalar, qutichalar, kitob qo'yshp uchun tagliklar (lavxlar), panjaralarga o'yib naksh solinadi.

Respublikamizda qadimdan bu san'atning bir necha markazlari paydo bo'lgan ularning qar qayeisida ustalar uymakorlikning o'zlariga xos uslublarini yaratishgan. Masalan, Xiva uymakorligi o'simliksimon ornamentlarining ko'pligi va bo'rttirib

ishlangashshgi bilan ajralib turadi. Toshkent ustalari esa yuza o`ymani (pargari) va geometrik ornamentni ishlatishadi.

Turli xil yog`ochlardan tayyorlangan pardozsiz buyumlarga usta o`simliksimon naqsh chizadida keyin uni maxsus buyoq bilan bo`yab chiqadi. Bo`yoq qurigandan so`ng uning buyog`i o`chib ketmasligi uchun ustidan bir necha marta tiniq lok surtiladi.

Uzbek ustalarining naqqoshlikdagi o`ziga xos usullari quyidagilardan iborat: ko`p qirrali pardozsiz kursi yasaladi, elim bilan tekislab chiqiladi, jilvir kog`oz bilan tozalab chiqiladi va bronza bilan qoplanadi, uning ustidan esa ulgi yordamida kompozitsion naqsh tushuriladi. Shu yo`l bilan bo`lajak naqsh tasviri xosil qilingach, unga qora buyoq surtiladi va naqsh solinadi. Rassom ish metodining o`ziga xos xususiyati shundaki, u kompozitsiyalarini axta kog`ozsiz, ulgisiz xam bezayveradi. Kompozitsion bezakda serbargli gullar ko`p takrorlanadi.

Devorlarni arxitektura dekoratsiyasi sifatida o`yma ganchkorlik bilan qoplash O`zbekistonda keng tarqalgandir. Devor avval ganchgox bilan suvab tekislanadi-bu o`ziga xos gruntovkadir.

Shundan keyin gul o`yiladigan yuzaga mayin «gul ganch» beriladi. Gul o`yish uchun avval maxsus ganch taxta quyiladi. Keyin uni yordamida rasm tasviri tushiriladi. Avval rasmning katta tekis joylari o`yib chiqiladi, keyin usta detallarga pardoz beradi. Bir chuqur o`ymali naqgllar yakka pardoz naqshlari iskana va shturgardon bilan bajariladi. Jimjima detallar gajak pardoz minqor, pichoq va hakoza bilan bajariladi.

Gazlamaga kolip yordamida kompozitsion gul bosishning o`ziga xos usulini “boyka<sup>19</sup>” gazlama gul bosish deb ataladi. Amaliy san’atning bu turi O`zbekistonda keng tarqaltan.

Gazlamaga gul bosishning Uzbekistondagi asosiy markazi Buxoro va uning atrofidagi G`ijdivon, Chitgaron, Jondor va Toshkent shaxarlari bo`lgan gul bosish

¹⁹ Ундерева Л.В. Узбекская народная одежда конца XIX – XX вв. – Т. : Фан, 1994 г.

protsessi juda murakkabdir.

Bo`zg`uncha suvi shimdirilib, maxsus tayyorlangai gazlama yog`och qoliplar yordamida gul seziladi. Har bir gulga turli qolip tayyorlanadi. Masalan, qora rangli gulning asosiy qonturlarini tushiriladigan bosma qolip nok daraxtidan tayyorlanadi. U avval chiniqtirilib qo`y yog`ida qaynatiladi.

Gazlamaga bosiladigan gullar rangida qizil rang asosiy rol o`ynaydi. Bu rang koliplari (terak yog`ochdan yasaladi) ornamentlari shakllar yoki fonni kuchaytirish uchun qo`llaniladi. Gazmolga gul bosishdan eng asosiy narsa gulli ornament hosil qilish protsessidir.

O`rta Osiyo o`zining zardo`zlik san`ati bilap qadimdan mashhurdir. Zardo`zlik uchun asosiy material fabrikada ishlanadigan metall ipdir, u kolaba-to`yi deb ataladi. Zar tikadigan buyumlar asosiga turli rangdagi sidirg`a duxoba ishlatiladi.

Zar tikish uchun to`rt burchak yog`och kergi ishlatiladi. Zar iplar duxoba ustiga parallel ravishda torttirib, zar rangli ipak bilan duxobaga tikib chiqiladi.

Zardo`zlikning biri qancha turlari mavjud bo`lib, hozirgi kunda ulardan asosan ikki xili «Zardo`zi-Zamindo`zi²⁰» (butun mato yuzasini zar choklar bilan qoplab chiqish) va «Zardo`zi-guldo`zi» (rasmlar ustidan gul tikish) qo`proq qo`llaniladi. Rasmlar qog`ozdan yoki kartondan qirqib yasaladi.

²⁰ Ундерева Л.В. Узбекская народная одежда конца XIX – XX вв. – Т. : Фан, 1994 г.

2.1. Mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi

Poshsholik ustaxonalarida zardo`zlikka mo`ljallangan har bir buyum, tikuvchining qo`liga kelib etguncha, dastlabki, murakkab va uzoq davom etuvchi ishlovdan chiqarilgan, Ustaxona bichiqchisi xosai bardor har bir buyumni o`z andozasiga moslab bichgan. Bichiqdan chiqqan mato qog`ozga chizilgan andoza tarhi bilan birgadikda ustaxonaga keltirilgan.

Tarhkash tomonidan tayyorlangan andozalar amirga namoyish etilgan va uning ruxsata bilangina zardo`zlarga uzatilgan. Amir shaxsan istifoda etishi kerak bo`lgan har bir buyum uchun alohida andoza tayyorlangan. Mato bilan andozani olgach, ustalar andoza tarkibida bo`lgan kashtalarning ma`lum miqdordagi ayrimayrim qismlari uchun tayyorgarlik ko`rganlar, ya`ni tikish uchun to`shama (pilta) qilganlar. Buning uchun odatda qalin oq qog`ozga qora bo`yoqda 'chizilgan andoza shaklini igna bilan chekib chiqilgan, uni teriga, kartonga yoki qalin qog`ozga yoyib, ustidan ko`mir kukuni sepilgan va shu tariqa andoza shakli ko`chirilgan. Ko`chirilgan shaklni qora bo`yoq yoqi qalam bilan qaytadan chizib chiqilganda, tuyabo`yin qaychi bilan qiyilgan. Bunday ishni odatda gulbur bajargan. Bir kishi eplashi qiyin bo`lgan katta ishlarda tikuvchilar ichidan ba`zilari gulburga yordamlashib yuborgan. Gullar kesilib, chambarak tayyor bo`lgach (ya`ni ta`vor pishiq o`ralgan bo`lgach), korcho`blarda bichiqdan chiqqan matoni tikishga kirishganlar.

Odatda ta`vor ish batamom nihoyasiga etgandan keyin olib tashlanadi. Ba`zan ish engil ko`chishini o`ylab, bundan tashqari matoga zar qatim qalin tushishini nazarda tutib, bo`z taglikni tikishdan oldin olib tashlaganlar. Tikilayotgan matoni tarang tortib va uni bo`z taglikka tengmateng rostlab, korcho`bni har tomondan aylantirganlar. Tikilayotgan mato faqat bo`z astar ustida barqaror bo`lishi uchun taglikni qiyib chiqqanlar. Goho buyum batamom qo`ldan chiqqandan keyin bo`z taglikning bir qismi olib tashlangan. Bunday holda taglikning tikish uchun zarur qismi joyida qoldiril**pb**, ortig`i olib tashlangan. Erkak va ayollar kiyimi, ot jullari va ro`zg`orbop buyumlar (so`zana, yostiq jildlari, joynamozlar) alohida korcho`blarda yoki bitta korcho`bda qismlarga ajratib tikilgan. Chopon tikishning uch yo`li mavjud bo`lgan: avval choponning yarmi, bir bari bilan orqasining yarmi tikilgan. Bunda bar

bilan orqani korcho`bga bor bo`yicha yoyib tortish mumkinligi ko`zda tutilgan. Choponning qolgan ikki yarmi elkaning o`rgasidan ulangan, andoza oxirigacha tushirilib, to bo`yingacha bo`lgan hamma joylar puxta tikib chiqilgan. Englar boshqa korcho`blarda aloqida tikilgan.

Ot jullarini bitta korcho`bda ikki yo`l bilan tikilgan, avval uning pastki qismi tikilgan, uning yuqori qismini nay ichiga qayirib, tikib qo`yilgan. Qashtalari qo`ldan chiqqan qismi esa buklab qo`yilgan. Ishning dastlabki jarayoni tugashi bilan julning yuqori, ikkinchi qismini tikishga o`tilgan. So`zana, yostiq jildlari va joynamozlar ham xuddi shu tarzda tikilgan.

Dastlabki tayyorgarlik ishlari bajarilib, mato taglikka yopishtirib bo`lingach, teridan, kartondan yoki qog`ozdan qirqilgan kashtaga yopishtirishga kirishganlar. Kashta hajmini hoshiyadan hisob qilishgan. Bo`r surilgan qo`sh tanob bilan hoshiya chekkalarini chizib chiqqanlar. Hoshiyani har ikki tomondan chegaralab turuvchi ensiz obadan tikish ishi boshlangan, hoshiya ichlari ham shundan keyingina gulga to`ldirib chiqilgan. Mato ustidan qo`yilgan charm yoki qog`oz gul bichiqlari surilib ketmasligi uchun ular yirik qaviqlar bilan chatib qo`yilgan. Hoshiyalar tikib bo`lingach, kashtaning markaziy qismini to`ldirishga kirishilgan. Matoda gullarning o`rnio`rnini topib qo`yish, xususan kiyimlardagi gullarni joylashtirib chiqish g`oyatda murakkab va mas`uliyattalab ishdir. Qorcho`b tayyorlovchi usta sar korcho`b darkash matoga gullarni joylab chiqqan, buning uchun u zur ukuv va malakaga ega bo`lishi talab etilgan. U tez vaqt ichida va hech bir kamchiliksiz kashtalanishi kerak bo`lgan maydonni shunday to`ldirishi lozim bo`lganki, juda ko`p ayryamayrim tayyorlangan gul qismlaridan oxiroqibatda yagoia mukammal kompozitsiya yuzaga kelgan.

Buning uchun butunicha sig`may qolgan gullarning ayrim bo`laklari quyi qismga yoki ostidan tu'shirilishini nazorat qilib turganlarki, ular kiyimning ko`zga yaqqol tashlanishi mumkin bo`lgan ochiq joyida o`rnashib qolmasin. Xususan, amiriing o`zi uchun mo`ljallab gikilgan buyumlarda bu narsaga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshganlar.

Aks holda kiyimni butunlay boshqatdan bichnbtikishga to`g`ri kelgan. Qiyimni necha bor qaytadan tikilgan hollar ham uchrab turgan. Mazkur albomning 8 raqamli

rasmda ko`rsatilgan choponlardan biri to rasamadida bo`lgunga qadar uch qayta tikilgani ma'lum.

Buyumga boshdanoxir kashta tarhi tushirib bo`lingach nihoyat tikishga kirishilgan. Chambarak o`rnatilgan bitta buyumni qism[^]qiomlarga aniq ajratib, bir necha tikuvchi tikkan. Katta korcho`blarda bir yo`la 10—12 kishigacha ishlagan.

Zardo`ziy qilinayotgan chopon, mursak, kamzullarning eng noeik joyi eng uchi — no`gi osti va ko`ksi — sari dil bo`lib, kiyim kiyilayotr yugashning ijodi bo`lmay, ko`pchilik bir 6o`amalga oshirganligiga arang ishonch hosil kvlnsh mumkin.

Zardo`zlik ishi quyidagi alpozda olib borilgan, dastlab yigirilgan yoki zarhal ip bilan asosny gul tvkilgan, keyin eshilgan to`ftado`ziy yoki zarrin simdo`ziy zar ip bilan gulning qismlarn tikilgan. Bu iplarling kalyobatun jingiln o`rusi, bireshimdo`ziy, ipak ip aralashgan zarrnn sim kabi nomlar bilan atalishi oldindan ma'lum. Zargarlik ziynatlari, bo`rtma naqshlar va hokazolar tikilishi odatiy bir hol bo`lgan. Shu tarvqa gullarning barchasi tikilib bo`lgach, unnng qirg`oqlarini pishiqqina yigirilgan zarrin ip tahrir bilan nozik yo`l qilib aylantirib chiqilgan.

Bozorda chiqarib sotishga mo`ljallangan qimmatbaho buyumlardagi tahrir yo tahriri xom bilan, yo tahriri nimtoba bilan tikilg`an. Bir necha yo`l zarrin ipni zshmasdan tikish tahriri xom, salgina eshilganini esa tahriri nimtoba deyilgan. Bu esa ipni eshib tikilgan tahrir eng keng tarqalgan usullardan bo`lib, buni tahriri yak toba deyilgan. 24 yo`l ipni ikki tayaob bilan zshib tikilgan tahrir tahriri sheroziy deb atalib, u faqat shohona buyumlardagina qo`llanilgan. Yaproqnusxa gullarni xorakdo`ziy (xorak—tikoncha degani) deb ataluvchi cho`zinchoq halqacha yordamida gardishlangan. Gullarning girdi esa faqat ip bilan tikilgan. Geometrik kashtalarning girdi yo birgina tahrir yordamida yoki kobuliy deb ataluvchi qator halqachalar yordamida aylantirib olinga;n.

Gullarning girdini aylantirish bilan baravariga tikuvchi tikilmay qolgan joylarni ham marg`ula, marg`uli nuktez, marg`uli dumchanok, tagalak (jingalak, uchli jingalak, dumli jingalak, spiraloimon jingalak va hokazo) nusxa gudlar bilaya to`ldirib borgan. [^]Chopon yoki boshqa har qanday buyum batamom zardo`zning qo`lidan chiqqach, uni chambarakdan olib, pardozlaryani nihoyasiga etkazish uchun poshsholik

tikuvchilarga uzatishgan. Tikuvchilar buyumning ayrimayrim tikilgan qismlarini bir-biriga ulab va astarini tikib, shoyi tasma ^jiyak) o`rnatish uchun ayollarga berilgan.

Erkak va ayollarga taalluqli ba'zi kiyimkechak va buyumlar (belbog`, salla, kulutapo`shak, ro`mol), uyro`zg`or buyumlari (oo`zana, yostiq jildi, joynamoz) zardo`zlik ishi tugashi hamon korcho`bdan birato`la olingan. Jul, poyafzal, ko`ylak kashtalari, do`ppilar, ro`mollar va xaltachalar avvaliga qaliyaroq bo`lishi uchun teokari tomondan oirachda elimlangan. Ro`mol singari buyumlarni yana ham qalinroq qilish uchun esa teskarisidan bir necha qavat mato yo qog`oz qo`yib elimlangan.

Buxoro zardo`zlari zardo`zlik ishlarini bir necha qismga bo`lib chiqadilar:

1. Zardo`ziy zamindo`ziy — tagini yoppasiga zar bilan tikish.
2. Zardo`ziy guldo`ziy — charm, karton yoki qog`ozga tushirilgan andoza bo`yicha tikish.
3. Zardo`ziy bireshimdo`ziy — goh ipak ipda, goh zar ipda aralash tikish.
4. Zardo`ziy pulakchado`ziy — pulakcha deb ataladigan piston qadab zardo`zlik tikishi Zardo`ziy zamindo`ziy odatda bo`z yoki charmga tikilib, ondasonda karboe deb ataladigan mahalliy matodan foydalanishgan. Karbosdan faqat otlarga jul va maydachuyda buyumlar qilingan, xolos.

Zamindo`zlikning ikki asosiy uslubi ma'lum:

- a) to`g`ridan-to`g`ri matoga tikish
- b) siddiy deb ataluvchi to`ramaga tikish.

Siddiy usuli, ayniqsa, mashhur bo`lgan. Bunday tikishda jaydari kalyoba ipidan foydalanilgan. Engilbosh singari nozik buyumlarni tikishda esa o`zining pishiqligi va silliqiligi bilan ajralib turuvchi rasponi gazoriy nomli ip ishlatilgan. Rasponi farangiy fabrika paxta ipi to`shamalarni tikishda kam qo`llanilgan.

Ancha oldingi zardo`zlik buyumlaridagi to`shamalarda jaydari shoyidan foydalanganlar. Xuddi shu yo`sinda tayyorlangan etiklar materiali va uslub xususiyatlari jihatidan taxminan XVIII asrga taalluqli bo`lsa kerak. (Mazkur BMIda siz uni ilovalar kismida ko`rishingiz mumkin.)

Utgan asrning 70-yillarida yasalgan buyumlarning ba'zi qismlari tikilishida,

istisno tarzida, shunday to'shamalarga ko'zimiz tushadi.

To'shama uchun tanlangan ip dastavval suvda ivitilgan, so'ng ikkitadan sakkiz qavatgacha qilib eshilgan. Shunday eshilgan ipdan keragicha tayyorlab va ularni patilaga o'rab, to'shamani bog'lashga kirishilgan. To'shamani bog'lash, siddiy boeton— ikki xil yo'lda amalga oshirilgan: agar ip ingichka bo'lsa, uni matodan teshib o'tkazilgan, agar eshilgan ip yo'g'on bo'lsa va matodan teshib o'tkazilayotganda uni yirtib yuborishi xavfi bo'lsa, uni mato ustidan ingichka ip bilan qadabqadab qo'yilgan. Zardo'zlik to'shamalari ko'ndalangiga yonmayon qilib qo'yilganki, zar ip bilan tikkanda baxyalar o'shalarga asoslangan bo'lgan. Eshilgan ip qanchalik ingichka va baxyalar qatori qanchalik zich qo'yilsa, chok ham shunchalik nafis va bejirim chiqqan. Zardo'zlik piltaoining iplari sariq rangda bo'lgani uchun zarrin iplar birbiridan qochganda oraliqlarda paydo bo'luvchi yoriqlar ko'zga darhol tashlanmagan. Iplarni tikuvchilarning o'zi zarcho'ba bilan bo'yaganlar. Piltasiz, shundoq matoning o'ziga qilingan zardo'zlikda ham mato sariqqa bo'yalgan. Zar iplar faqatgina xom surp, doka, pardalik singari matolardan teshib o'tkazilgan. Buxoro zardo'zligida dokaga tikish xuddi qalin matodagidek amalga oshirilgan. Faqat eng keksa tikuvchilargina bir vag'tlar o'evosita dokaga zar ip bilan tikilganini eslaydilar. XIX asrning birinchi choragi oxiri va ikkinchi choragi boshida sallalarga xuddi shunday zardo'zi gullar tushirilganligi haqida ma'lumotlar bor. Tikuvchilar bu ishda tamburli ilgakdan foydalanilgani haqida taxmin qilsalarda, bu ish qurolining o'zi bizgacha etib kelmagan.

Qalin matodan zar ipning o'tishi qiyin bo'lgan, o'tgan taqdirda ham uzoqqa chidamagan, titilib ketgan. Shu boisdan zar ip pilta, ya'ni to'shama yo'llariga ko'ndalang tarzda qator qilib yotqizib chiqilgan, ustidan ipak yoki paxta ip yordamida ilibilib tikilgan. Ular baxyalar orasiga joylashganidan chatilgan ilgaklarning turlicha joylashuvi o'ziga xos kashtani yuzaga keltirgan. Ipak yoki paxta ip zar ipni qisib turganidan qator chuqurchalar hosil qilib, ip o'tmagan joylar xiyol do'ppayib qolavergan, bu keng sath uzra to'lqinsimon chiziqlar hosil qilgani uchun tikuvchilar tilida mavj degan nom olgan. Chatib tikish zardo'zlarning ijodiy xayoloti va kashfiyotchiligi uchun keng imkoniyatlar tug'dirgan. Mavjning bir necha turi

yuzaga riqa hosil boʻlgan chokli kashtalar uchun Buxoro zardoʻzlarining oʻziga xos va puxta ishlab chiqilgan iboralari bor boʻlib, ular avloddan - avlodga hech bir oʻzgarishsiz oʻtib kelgan.

1.Mavji yakroʻz — bir yoqlama toʻlqin. Bu eng oddiy va aftidan eng qadimiy gullardan biri. U Buxoro zardoʻzligining bizga maʼlum barcha buyumlarida uchraydi. Bunda chatilgan halqachalar birbiriga koʻndalang, yoyamayon chiziqlar shaklida joylashgan.

Qadimgi rus zardoʻzligida bu gul «qatorchalar» yoki «joʻn kesma qator» nomi bilan mashhur boʻlgan. Bu gul zardoʻzlikning qariyb hamma qadimgi yodgorliklarida uchraydi va XII asr oxiri yoki XIII asr boshlariga kelib oʻzining yuqori choʻqqisiga chiqadi.

Toʻshama ustidan ingichka oʻrilgan 4—5 qavat zar ip — sijiy qoʻyilib, zardoʻz uni ipak yo paxta ip yordamida har toʻrt baxyaga bir yoʻl qilib chatib chiqqan. Tikuvchi xalqachalarni zinapoyacha shaklida joylashtirishga alohida eʼtibor bergan. Natijada buyumning yuzasini bir - biriga koʻndalang qator yoʻllar qoplab olgan. Qirgʻoqlarida esa turli uzunlikdagi ensiz yoʻl — milk hosil boʻlgan.

Mavji duroʻya - ikki yoqlama toʻlqin yoki mavji pushti mohiy—baliq tangachalari. Bu ham birbiriga yonmayon chiziqlar shaklidagi kashta boʻlib, ilgaklarining soniga koʻra yo koʻproq, yo ozroq darajadagi siniq yoʻllarga ega.

Qadimgi rus zardoʻzligida bu tur kashtalar shaharcha yoki tuyoqcha deb atalgan. Bu tur XII asrda yasalgan buyumlarda uchraydi²¹.

Mavji - bu kashtani tikishda navbatma - navbat qilib toʻshamaning ikkita yoki toʻrtta baxyasi bitta qilib olinadi. Natijada tikilgan yuzada goh qator tortor, yassi va qoramtir, goh kengkeng, doʻppaygan va yarqiroq yoʻllar hosil boʻladi. Bu usul ikki xil yoʻl bilan tikiladi: yak roʻya (bir yoqlama) va du roʻya (ikki yoqlama).

Mavji chashmi bulbul (bulbul koʻzi toʻlqin)da chatish ilgaklari kichkina - kichkina toʻrtburchak yoki rombchalar hosil qiladi.

Mavji yak roʻya bilan chashmi bulbul zardoʻzlikda eng koʻp qoʻllaniladigan

²¹ Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М. : Наука, 1989 г.

gullardan hiooblanadi. Bu ikkala gul tikilmagan bironta buyumni uchratish amri mahol. Chashmi bulbul aslida du ro`ya uslubidagi kashtachilik sirasiga kiradi.

Qadimgi Rusiyada mazkur usuldagi kashtalarni meva eki oddiy meva deb atalib, ular aslida Vyzantiyadan kelib chiqqan va eng ko`p tarqalgan qadimgi kashtalardan hiooblangan. Chashmi bulbulni mavji yak ro`ya va mavji du ro`ya bilan chog`ishtirib tikkan zardo`z o`nga yaqin turli variantlar hosil qilgan.

Shash xol (olti xol). Bir yoi ikki qator «to`lqin» katakchasi orasiga joylashtirilgan gul. Bu gulning ikkita varianti mavjud bo`lgan: olti baxyalik (shash xoli shishtai) va sakkiz baxyalik (shash xoli hashtai). Shash xol usuli ko`pincha chashmi bulbul kashtasi bilan chog`ishtirib tikilgan.

Xishti haram (muqaddas g`isht). Buxoro zardo`zlari mazkur iboradagi haram so`zini podshoning harami ma`nosida emas, balki arabcha haram (muqaddas) ma`nosida ekanini aytadilar. Bu kashta boshqa kashtalarga qaraganda juda ham chiroyli ekanini ham e`tirof qiladilar. Xishti haram kashtasini zardo`zlar bu xildaga kashtalar sirasiga kiruvchi jo`ngina yaisht deb ataluvchi kashtasi bilan aslo aralashtirmaganlar. Bular qatorlari ko`ndalang yo`nalishdagi birbiriga miyadirib tikilgan to`rtourchaklardan iborat bo`lgan.

Mavji chor dar chor (to`rtga to`rt to`lqin) kashtasining tafsiloti ham unut bo`lib ketgan u kashtada chatish ilgaklari shunday joylashtirilgan.

Keyinchalik u jul va mayda chuyda buyumlarda ishlatilgan. Sunggi damlarda esa bu kashta qisman oyoq kiyimlarida, choponlarda saqlanib qolgan bo`lib, zndi u uzuniyag asl mohiyatini yo`qotgan.

Kashtaning nomi ham o`zgarib ketgan. Endi *u* mavjtulqin emas, balki 24 qavat ipda tang, jungina qilib tikiladigan obi chor dao chor nomidagi kashtaga aylangan. Vaqtlar o`tishi bilan uvi tikish yo`oini ham o`zgargan. Qadimgi buyumlarda u ancha bo`rttirib tikilgan bo`lsa keyinchalik (faqatgina poyafzalning orqa tomonida) butunlay yassi kurinish kasb etadi.

Mavji chor dar chor piltaning ikki va to`rt qavat ipiga yo`llar kengligida to`qimaning 6 10, 12 qavat ipida tikilgan.

8. Mavji xanjariy. Zardo`zlarning tafsilicha bu kashta yo`l - yo`l qilib kertilgan

tanglayga uxshaydi. Kashtaning bu turi bilan tengyonli uchburchak yoki shunga o'xshagan shakllar ko'rinipgidagi uncha katta bo'lmagan yuzalar tikilgan. Bu kashta hech qanday tayyorgarliksiz, to'shamasiz, bevosita matoning o'ziga tikilavergan. Tikish buyumning chetidan o'rta tomonga yo'na lishda amalga oshirilgan. Zar iplar uchburchak enlariga parallel ravishda yotqizilgan.

Qaviqlar enmaen holda turliturli tomonlarga qarab ketuvchi ko'ndalang yo'llar hosil qiladi. Mavji xojariy se ro'ya sirasidagi kashtalarga kiradi.

9. Shoxcha kashtasi faqatgina ayollar uy va bosh kiiimlarining qirgoqlarini, ya'ni hoshiyalarini bezashda ishlatiladi.

10. Kandoriydo'ziy yoki oddiygina kandoriy kashtasi Afg'oyayastonning Qandahyur shahri nomidan olingan bo'lib, ustalarning ma'lumot berishicha, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'sha tomondan keltirilgan. Bu kashta kiyimlarning nisbatan kichikkichik qismlarini tikishda qo'llanilgan (to'rtburchak va romb ko'rinishidagi tor yo'llarda, kichikkichik to'garaklarda, qirg'oq (hoshiya)ning girdidagi yo'llarda va hokazo). Bundan tashqari ot jullari va erkakayollarning bosh kiyimlaridagi tagzaminni sidiq'a kashtalashda qo'llanilgan. Qan dahorcha chok tikish matoga to'shamaoiz tikiladi. Patli (yungli) matolarning choki tagidan, zar ip orasidan patlarning chiqib qolmasligi maqsadida, oqiga kumushrang, sarig'iga tillarang bo'z taglik qo'yilgan. Kashtaning ikki xili bo'lgan: kandori chor baxyagi — to'rt baxyali kandoriy va kandori hasht baxyagi sakkiz baxyali kandOriy. Xiyla murakkab bo'lgan 8 baxyali kandoriy bilan qimmatbaho zardo'zi buyumlar tikilgan. Bu kashta odatda tarhini tushirmasdan turib hammavji xojariy singari tikilavergan. Kandoriyning aoosini to'rtburchakli xonacha tashkil ztib, u chetidan o'rtasiga tomon jingalakjingalak bo'lib keluvchi zarrin kashta bilan to'ldirilgan.

Natijada 4 baxyada tikilgan xonachasalib kurinishida, 8 baxyada tikilgan xonacha zardo'zlar nur va soyalar hosil qilish san'atida katta mahorat ko'rsatganlar.

Mazkur uslubning bir necha turi mavjud bo'lib, shulardan eng ko'p qo'llaniladigani quyidagilardir: a) o'rtasida qo'ndirmasi bo'lgan kandoriy — kandori dila xonanok, rangli eshilmagan ipakdan qilvngan tangachali kandoriy zar simlardan qilingay. Tangachali kandoriy 8 baxyali tikishda uchraydi, xolos.

Bu o`rinda biz eng ko`p qo`llaniladigan kashta gullarni va ularning turlaryani sanab o`tdik. Ammo mohir zardo`zlar qayd etilgan uslublarni turlituman yo`llarga solib, ularning xillarini ko`paytirish imkoniga ega bo`lganlar.

Guldo`ziy kashtasini tikishda andazasini qanday matodan qilinishiga ko`ra, kashta anchamuncha tekis chiqqan. Zardo`zlikning xiyla eskirgan, taxminan 1870—1875 yillarga oid buyumlarida biz tikishi juda a`lo chiqadigan oq mesh (zamsha) char,mni uchratamiz. Bu usul tikishida esa ko`proq karton ishlatilgan.

U qarib butun XIX asr mobaynida charm bilan bir qatorda yasalgan barcha buyumlarda uchraydi. Bir yoki ikki qavatdan iborat yupqa qog`oz XX - asrning 20 - yillarida yasalgan buyumlarda foydalanilgan. Zargarlik taqinchoqlariga o`xshash mo``jazgina gullar tagiga ba`zan paxta qo`yib bir necha bor taxlangan matoga tikilgan. Bunday gullar azzal alohida tikib olingan, keyin matsning zarur bo`lgan joylariga chandib qo`yilgan. U yoki bu uslubning aralash texpikaoida ijro etilgan zardo`zlikni zardo`ziyguldo`zvy zamindo`ziy yoki zardo`ziy zamindo`ziyguldo`ziy deb atalgan.

Zardo`ziy birishimdo`ziydagi rangli ipakda tikilgan elementlar zar ipda tikilgan elementlar bilan chog`ishtirilgan.

Uni tikishda andoza bo`vicha chatishga tikilgan zar iplar singari qizg`ish, malinarang, qizil, to`q qizil, xilxil tovlanadigan yashil, ko`k, moviy, ondasonda nopormon, ba`zida oq va sariq tUSDagi zshilgan va eshilmagan ipak ip qo`llanilgan. Zardo`zlikda ipak ip bilan tikishning juda ko`p usullaridan faqat kashta, yo`rmado`zi va iroqi nusxalari qo`llanilgan. Qashtada kam tikkanlar. Io`rmado`zilik bigiz yordamida takilgan. Gullarning ayrim qismlari alohida tikilib, uni qirqib olingan va kerakli joyga chandilgan. yo`rmado`zlikning nusxalari to`garak, to`g`riburchak, to`rtburchak shakllarida bo`lgan. Iroqida ham gullarning qismlari alohida tikilgan. Bu usulda gilam deb atalgan Shahrisabz do`ppilari tikilgan, Zardo`ziy birishimdo`ziy deb atalgan aralash nusxani biz XIX—XX asrga oid zardo`zlykning chopon va jullarida ko`rishimiz mumkin.

Zardo`ziy pulakchado`ziyda pistonchalar guldo`ziy nusxasida bajarilgan tikishlarda chog`ishtirilgan. Pistonchalar, odatda, islimiy naqshlarning tagzaminini

to'ldirishda ishlatilib, matoga zich qatorlarga terilgan va hech qanday gul shaklini bermagan. Ahyonahyonda gullarga qadalgan pistonchalar yulduzcha shaklini yoki to'rttadan salib shaklini ifodalagan. Goho jullarda ular bir yoni ikki qator islimiy naqshlarni ham aks ettirgan hollar uchraydi. Chupon, ba'zi ayollar buyumlari (kulutapo'shak bosh kiyimi va ko'ylak o'mizidagi tor yo'l — zei kurta)da qo'llaniladi. XIX asrning 30—40 yillaridagi kiyimboshlarda pistoncha keng qo'llanilsada, keyinchalik biz uni faqat maydachuyda buyumlardagina uchratamiz. Jullarda esa pistoncha hamisha ishlatilib kelgan, u ham bo'lsa davri gardish deb ataluvchi bozorbop juldagina uchraydi.

Marvarid bilan bezatilgan marvaridkori tashqarioida uyushtirilgan sayillarda va ulug' ayyom kunlarida kiyadigan dabdabali ust kiyimlari bezatilgan. Bunday kiyimlarni birovga tortiq qilib berilmagan, hattoki hukmdorning yaqin qarindoshlari ham uni kiyishi mumkin bo'lmagan. Chuponlar, kulohlar, poyafzallar marvarid bilan ziynatlangan. Marvaridni bitta yo'l bilan aylantirilib tikilgan. Toshlar esa to'pto'p qilib, tekis zar gardish ichiga olib tikilgan. Toshlar bilan bezatilgan zardo'zlik buyumlari saqlanib qolmagan.

2.2. Islimiy naqsh kompozitsiyalarini tuzish usullari

Xalq amaliy san'atining qaysi bir turi bo'lmasin, uning zaminida naqsh elementlaridan tuzilgan kompozitsiya yotadi.

Naqsh kompozitsiyasining bezak elementlari esa tabiatda uchrovchi gul, novda, barg, parranda va hayvonot dunyosini soddalashtirib tasvirlash natijasida hosil qilinadi.

O'ar bir vohta va shaharlarning naqsh kompozitsiyalari bir-biridan o'zaro ajralib turadi. Toshkent, Xorazm, FarQona, Samarqand, Buxoro naqqoshlik maktablarining o'z ornament va rang kolloritlari mavjud. Mustaqil naqsh tuzish jarayonida stilizatsiya orqali naqsh elementlari o'zaro biriktiriladi. Naqsh bo'laklarining vazifalari va ravon chizilishiga e'tibor beriladi. Gul, barg, novda, bofta va qo'sh bandlik naqsh elementlaridan naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Talabalarning fantaziyalari, mavjud naqsh elementlarini ma'lum qonun-qoidalarga amal qilgan holda joylashtirishda ular ma'lum bilim va malakaga ega bo'lishlari lozimligini taqozo etadi. Birgina "Bodom", "Kalampir" nushalari shaklidan naqqoshlik, zargarlik, kulolchilik, kashtachilik, zardo'zlik kabi xalq amaliy san'atida turli-tuman o'ziga xos naqsh namunalarini yaratish mumkin. Kompozitsiya tuzish yo'llari va ularning homaki namunalarini tayyorlash naqqoshlik, ganchkorlik, yoQoch o'ymakorlik va boshqa amaliy san'at turlari uchun umumiydek ko'rinsada, aslida qo'llaniladigan xom ashyosi, ijro pardozi turlari bilan farqlanadi.

Kompozitsiya so'zi lotincha bo'lib "joylashtirish, qurish, tuzish" degan ma'noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh kompozitsiyasiga ko'ra uning elementlari qo'qoz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi. Tanlangan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun bir qancha homaki eskizlar ishlanadi va ulardan talabga javob beradiganlari tanlab olinib, kompozitsiya tuzishda qo'llaniladi. Naqsh kompozitsiyalar tuzishda bo'laklarning o'rnini almashtirish, qo'shimcha detallar kiritish orqali uning mavzusini yanada boyitish kabilar ham muhim ahamiyatga egadir. Naqsh mavzusining ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim.

Kompozitsiyada naqsh yaratish muayyan qoidasini simmetriya, assimetriya, muvozanat, detallarning o`lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilish tashkil etadi va bunga qat'iy amal qilinadi.

Mustaqil naqsh to`qish jarayonida o`quvchilar stilizatsiya orqali tuzilgan elementlarini o`zaro biriktiradigan naqsh elementlarining vazifalariga va ularning ravon chizilishiga etibor beradilar.

Mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Chizilajak naqsh kompozitsiyasini shakl, o`lcham va taqsimlarini mo`ljalga olish.
- Kompozitsiyaning yakka yoki qo`sh banddan iborat bo`lishligi nazarda tutilgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish.
- Kompozitsiyaga novda, barg, gul va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukammallashtirish.
- Davriy takrorlanish.
- Naqsh bandini bofta, shkufta elementlari bilan boqlab boyitish.
- Kompozitsiyaning asosiy shaklini umumlashtirib naqshni nomlash.
- Kompozitsiyaning ma'no va maqsadini hisobga olgan holda rang tuslarini aniqlash.
- Simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini saqlash.

Mustaqil naqsh to`qishni boshlashda o`quvchi ikki, uch va undan ortiq elementlar yordamida eng sodda naqsh kompozitsiyalarinilarini tuzishi mumkin. Bunda ixtiyoriy tanob shakli chiziladi va gul, novda, barg elementlari yordamida to`ldiriladi. Mavjud kompozitsiyani shakl yoki gul elementlari nomlari yordamida nomlash mumkin.

Yo`l, aylana, kvadratga chiziladigan naqsh kompozitsiyalarini ham ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmasidan tuziladi. O`ar qanday naqsh kompozitsiyalari pishiq va chiroyli chizilishiga ahamiyat berilishi kerak.

Elementlarning o`zaro tartibli joylashuvi naqshning jozibasini yanada oshiradi.

Mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuzishda ham xalq ustalari ijodini kuzatish,

xalq amaliy san'ati muzeyiga borish va nusxa ko'chirish yaxshi samara beradi. O'quvchi qancha ko'p naqsh elementlarini yoddan chiza olsa, kompozitsiya tuzish shunchalik oson kechadi. Sodda naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Boshlang'ich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish odatda talabalarda bu borada ayrim nazariy va amaliy tushunchalar, ish tajribalari hosil bo'lganidan so'ng mustaqil topshiriq sifatida berilishi mumkin. Dastlab talabalar buyum yoki yuza sirtini, uning o'ziga xos o'lchamlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib, bo'lajak naqsh kompozitsiyasining shakl va elementlarini "xayolan" tanlab oladilar. Albatta, bu naqsh elementlari talabalar tomonidan qachonlardir o'zlashtirib olingan yoki kuzatilgan naqsh bo'laklaridan iborat bo'ladi. Bunda talabalarning tasavvurlari, ish tajribalari, fikr yuritishlari qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, shuningdek, xotiralari zahirasi qanchalik ko'p naqsh elementlari mavjud bo'lsa, ular ajoyib naqsh kompozitsiyalarini tuzishlari mumkin bo'ladi. Tuzilajak naqsh kompozitsiyalari bo'laklar asosida tuzilib, uning nushasi maxsus usulda kerakli joylarga ko'chirilib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar mobaynida naqqoshlar mehnatini ancha engillashtirib kelmoqda. Shu ko'rsatmalarga muvofiq shakl yasovchi reja-qolip 4\1 nisbatda chizib olinadi. Ramka chiziqlari yakka, qo'sh va bir necha qo'shimcha chiziqlardan iborat bo'lishi mumkin. Patnis ko'rinishidagi bu shaklga bofta va gajak elementlari ulanadi. Navbatdagi bosqich yakka yoki qo'sh bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mehrob va yurak shaklidan iborat bo'lishi ham mumkin. Mashqlar davomida chiziqlar harakatining ravonligiga shakl chiziqlarining qiyshiq yoki siniq holatda chizilib qolmasligiga e'tibor qaratiladi. Yakka band yo'lidan iborat tanob ayrisi shkufta elementi bilan boQlanadi. Endi yuza bo'shliqlariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir-biriga boQlagan holda joylashtirish rejalashtiriladi. Novda shakllar bo'yicha harakatlantirilib chizib boriladi. Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir-birlari bilan yaxlit, uzviy boQlanib ketishini ta'minlaydi. Naqsh namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya'ni ulash natijasida kompozitsiya mazmuni tug'al echimini topadi, mavjud naqsh kompozitsiyasi patnis ko'rinishidagi naqshlar turiga xos bo'lganligi sababli "Patnis islimi" deb ataladi.

Kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir bo'lakka ishlov berilgan holda uning nushasi kerakli joylarga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Naqshlar mazmuniga ko'ra o'simliksimon, girix, gulli girix, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi. O'simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta Quncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan. Girix- geometrik shakllardan tuzilgan bo'lib, chigal, tugun ma'nosini anglatadi. Xandasiy naqsh - murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, to'rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan hamda ko'pburchaklardan iborat bo'ladi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi.

Ruta - ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, ya'ni hoshiya naqsh. Uning o'lchami ko'pincha 14-20 sm atrofida bo'ladi. O'oshiya naqsh turli xil bo'lib, uning mexrobga, xonaga ishlanishiga qarab lo'la hoshiya, ishkomb va boshqa turlari bo'ladi.

Munabbat - arabcha o'stirmoq degan ma'noni anglatadi. Asosi kvadrat yoki to'rtburchakdan tashkil topib, to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalaniladi. Munabbatning o'simliksimon, geometrik va boshqa kompozitsion turlari bor. Uning munabbati mehrob, munabbati bofta, munabbati islami, munabbati girix va boshqa atamallari mavjud.

Turunj - arabcha "limon" degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalon. Naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib, boyitilgan.

Namoyon - forsha ko'rinish, manzara demakdir. Namoyon hech nimaga ulanmaydigan mustaqil kompozitsiya bo'lib, murakkab naqsh turiga kiradi. Uning o'simliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilishga ega bo'ladi.

2.3. Naqsh kompozitsiyasining asosiy hususiyatlari

Har bir chizilgan kompozitsiyani xususiyati ishlanish joyi va uning harakteriga bog'liq. Biror buyum uchun ishlangan kompozitsiyaning ma'nosi uni o'rab turgan muhit bilan hamoxangligi, rangi, tugatilganligiga alohida e'tibor beriladi. Bunda kompozitsiya qo'yilgan maqsadni ifodalaydi. Bu xususiyat buyumlarga chizilayotgan kompozitsiyalarda garmoniya-yaxlitlikni tashkil etishni xisobga olish kerak.

Kompozitsiya xususiyatlarini bilish yuqori darajada san'at asarining yaratilishiga olib keladi. Naqqoshlikdagi bu xususiyatga amal qilinmasa, san'at asari o'z ma'nosini yo'qotadi va ish savodsizlarcha bajarilganligini shoxidi bo'lamiz.

Garmonik butunlikning kompozitsiya unsurlariga tegishliligi. Kompozitsiyada garmonik butunlik deganda uning o'z nuqtai nazari juda ko'p qirralaridir. Eng avval kompozitsiyaishlanish joyi, ishlanayotgan buyumning shakli, ishlatiladigan joyiga uzviy bog'liqdir. Bu san'at asarini ko'rib taxlil qilar ekanmiz, uning o'rab turgan muhit bilan bog'liqligi hamda shu muhitga qanchalik qo'shilib bir butun ansamblni tashkil etganligini va bunda garmonik butunlik borligini ko'ramiz. Naqqosh o'z kompozitsiyasini o'rab turgan muhit bilan bog'lay olmasa, u holda yaratgan ishi san'at asari bo'la olmaydi. Biror chini idishlar servizi uchun ishlangan kompozitsiya shu servizdagi hamma idishlarning bir-biri bilan hamoxang ansamblni tashkil etishni ta'minlashi kerak. Servizdagi lagan, choynak va piyolalar bir-biriga nisbatining to'g'ri tanlanganligi, ulardagi gullar rangini to'g'ri topilganligi shu servizdagi estetik butunlikka ta'sir etadi va ular orasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi. Buyumlar qanchalik ko'p bo'lsa ular uchun ishlanadigan kompozitsiyalar shunchalik murakkab bo'ladi. Bu murakkablik naqqoshdan chiziladigan naqsh yaxlit bir ansambl tashkil qilishini talab etadi (ansambl-frantsuzcha so'z bo'lib, «birga» degan ma'noni bildiradi). Eng avval naqqosh buyumlar orasidagi konstruktiv bog'liklikni aniqlab olishi kerak. Masalan: shu servizdagi biror idishning boshqa idishlar bilan konstruktiv bog'liqligi bo'lmasa u holda servizning estetik go'zalligi yo'qoladi. Bunda naqqosh qanchalik urinmasin, baribir bo'yumlar orasidagi to'la bog'likka erisha olmaydi. Yaratilgan asarning butunligi kompozitsiyaning barcha xususiyat va qonuniyatlariga qat'iy rioya qilingan bo'lishi lozim.

2.4. Naqqoshlik kompozitsiyalarida xarakat

Biror san'at asarini olib taxlil qilar ekanmiz, kompozitsiyaning hamma unsurlarida harakat yoki turg'un holatdaligini ko'rishimiz mumkin. Naqqosh yangi kompozitsiya tuzishdan avval kompozitsiyaning harakterini (harakati yoki turg'un xolatli) aniqlab olishi zarur. Odatda aylana yoki kvadratga ishlangan naqshda harakat sezilmaydi. Aylana va kvadratga qaraganimizda unga chizilgan naqsh kompozitsiyasi o'zining turg'unligi bilan ajralib turishi kerak. Yo'l ichiga yoki to'g'ri to'rtburchak ichiga chizilgan naqsh kompozitsiyasida o'z-o'zidan harakat seziladi. Bu shakllarga chizilgan naqshdagi novda va gullarni o'sib borishida ko'rinib turadi. Qanchalik yo'l uzun va to'g'ri to'rtburchak tomonlariga chizilgan bo'lsa, unga ishlangan naqsh kompozitsiyasidagi harakat shunchalik aniq sezila boshlaydi. Lekin bu to'g'ri to'rtburchak yo'l shakllariga ishlangan naqsh kompozitsiyasi o'z mazmuniga ega. Teng tomonli uchburchak ichiga ishlangan naqsh kompozitsiyasida harakat uning uchi tomon bo'ylab intilganini ko'ramiz. Chizilgan naqsh kompozitsiyalarida harakat sezilib turadi. Kompozitsiyada xarakat qilmay turgan unsur ham uchraydi, bu unsurlar naqshning harakatini yanad kuchaytirish vazifasini o'taydi. Xarakat qilmay turg'un unsurlarni shu kompozitsiyaning harakteriga ta'sir ko'rsatmaydigan qilib chizish kerak.

XULOSA

O`zbek zardo`zligi tarixida o`ziga xos jarayonlar mavjud. Qadimdan to XIX asr oxirigacha bo`lgan zardo`zlik asarlarida bir xil unsurlarning takrorlanmasligi, kompozitsion qurilmasining puxtaligi, to`qish texnikasining yuqori sifatliiligi, ranglarning nafisligi, naqsh va hoshiyaning o`zaro uyg`unligi bilan alohida ajralib turadi.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda shu narsa ma`lum bo`ldiki XVII asr oxiriga kelib O`zbekistonda zardo`zlik san`ati g`oyat keng tarqalib, deyarli har bir ayol bu san`atni baxoli qudrat egallab olgan.

Gul solingan kiyimlar, asosan, yosh kizlarning to`ylariga tayyorlanar edi. Bunday kiyimlar kelin sepining bir qismini tashkil etib, yosh kelin-kuyov xonasining bezagi xisoblanardi. O`zbekistondagi zardo`zlik o`z maqsadiga ko`ra har xil bo`lib, bir necha turlarga bo`lingan.


Mavzuni xar tamonlama o`rganishga xarakat qilindi, mavzuni yoritishda yozma manbalarning kamligi malakaviy ishning to`laqonli ochib berishga to`siq bo`ldi. Keyingi ilmiy ishlarimda mavzuni yanada to`liq ochib berishga xarakat qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:


1. Karimov I. A. «O`zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari»; --T.; «O`zbekiston». 1995
2. Xalq badiiy xunarmandchilik va Amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yO`li bilan qullab-quvvatlash chora tadbirlar tugrisida. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni,-- T.; «Toshkent oqshomi» gaz. 2 aprel, 1997, 38 – son.
3. Rempel L.I. Pandjara. -- T.; Gosudarstvenniy izdatelstvo xudojestvennoy literaturi. 1957
4. Rempel L.I. Arxitekturniy ornament Uzbekistana. -- T: Gosudarstvenniy izd, xud. literaturi. 1961
5. Pugachenkova G.A. Xalchayan. (Shimoliy Baktriya badiiy sanati muammosiga doir) - T.; O`zbekiston «Fan» nashriyoti. 1966
6. Faxretdinova D.A. Dekorativno-prikladnoe iskusstvo Uzbekistana. - T.; izd. literaturi i iskusstva im. Gafura Gulyama.
7. Pugachenkova G.A. Zodchestvo Tsentralnoy Azii. XV vek -- T.; Izd. literaturi i iskusstva im. Gafura Gulyama. 1976
8. Pugachenkova G.A. Rempel L.I. Ocherki iskusstva Sredney Azii. -- Moskva. «Iskusstvo» 1982
9. Abdullaev N. San'at tarixi. 1t-T.; «O`qituvchi» 1986.
10. Mirzaaxmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. -- T.; «O`qituvchi» 1986.
11. Azimov I. O`zbekiston naqshu nigorlari. – T.; G. Gulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1987
12. Qosimov Q.Q. Naqqoshlik -- T.; «O`qituvchi» 1990
13. Manakova V.N. O`zbek xonadonining badiiy bezash madaniyati. - T.; G. Gulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1989
14. Bulatov S.S. O`zbek xalq amaliy bezak san'ati. -- T.; «Mexnat», 1991
15. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lugati. – T.; Qomuslar bosh tahririyati. 1992
16. Abdullaev N. San'at tarixi. 2t-T.; «San'at» 2001.

17. Bositxonov Z. Xandasiy naqsh (girix)larning echimlari. –T.: «Ochiq Jamiyat Instituti Ko`mak Jamg`armasining O`zbek Vakolatxonasi», 2002
18. G`ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. -T.: «Bilim», 2004
19. Abdullaeva T.A. , Xasanova S.A. Odejda uzbekov. – T. : Fan, 1978g.
20. Ismoilov X. An'anaviy uzbek milliy kiyimlari. – T. : Fan, 1978 y.
21. Kibalova L. , Grebenova O. , Lamarova M. – Praga : Artiya, 1986 g.
22. Kireeva E.V. Istoriya kostuma. – M. : Prosveshchenie, 1970 g.
23. Kostum narodov Sredney Azii. (pod redaktsiey Suxareva O.A.) – M. : Odejda narodov Zarubejnoj Azii. Sbornik MAEI t. XXXII. – L. : Nauka, 1977 g.
24. Mertsalova M.N. Istoriya kostuma. – M. : Iskusstvo, 1972 g.
25. Narodnoe iskusstvo Uzbekistana. – T. : Izdatelstvo literaturi i iskusstvo im. G.Gulyama, 1972 g.
26. Narodnoe dekorativnoe iskusstvo Uzbekistana. Tekstil. – T. :Tashkent, 1954 g.
27. Sichev L.P. , Sichev V.L. Kitayskiy kostum. – M. : Vostochnaya literatura, 1975 g.
28. Suxareva O.A. Istoriya Sredneaziatskogo kostuma. Samarkand (2 polovina XIX – nachala XX veka). – M. : Nauka, 1982 g.
29. Traditsionnaya odejda narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M. : Nauka, 1989 g.
30. Undereva L.V. Uzbekskaya narodnaya odejda kontsa XIX – XX vv. – T. : Fan, 1994 g.
31. Egamberdiev A. Rassom va zamonaviylik. – T. : Uzbekiston, 1973 y.
32. Grube E. Dekorativnoe iskusstvo epoxi timuridov v Tsentralnoy Azii // Materialy mejdunarodnogo simpoziuma po iskusstvu Tsentralnoy Azii v epoxu timuridov. M., 1969.
33. Baratova Sh. Uzbekskaya traditsionnaya vishivka kontsa XIX — nach. XX vv. Tashkent. San'atshunoslik fanlari nomzodligi uchun tayyorlagan dissertatsiyadan (chop etilmagan) ma'lumotlar olingan.
34. Chepelevetskaya G. L. Suzani Uzbekistana. Tashkent, 1961.

ILOVA





















Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat yo'nalishi bitiruvchisi S.Q.Palvanovanning

"Umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitilishi"

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Bitiruvchi S.Q.Palvanovanning "Umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitilishi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi elektron shakilda varaqdan iborat bo'lib, 10878 so'zdan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishiga 7 varaqdan iborat 11 ta ilova qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki umumta'lim maktablarida amaliy san'at mashg'ulotlarida shu san'at turiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish, amaliy san'at haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirish, yangi-yangi qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishtirish, o'quvchilardakashtachilik sohasida ko'nikma va malakasini shakillantirishga, rivojlantirishga qaratilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilgan. Talaba tomonidan bir qancha adabiyotlar tahlil qilingan. Jumladan Karimov I. A. «O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari»; --T.; «O'zbekiston». 1995, Xalq badiiy xunarmandchilik va Amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlar tug'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, -- T.; «Toshkent oqshomi» gaz. 2 aprel, 1997, 38 – son, Rempel L.I. Pandjara. -- T.; Gosudarstvenniy izdatelstvo xudojestvennoy literaturi. 1957, Pugachenkova G.A. Xalchayan. (Shimoliy Baktriya badiiy sanati muammosiga doir) - T.; O'zbekiston «Fan» nashriyoti. 1966, Faxretdinova D.A. Dekorativno-prikladnoe iskusstvo Uzbekistana. - T.; izd. literaturi i iskusstva im. Gafura Gulyama, Abdullaev N. San'at tarixi. 1t-T.; «O'qituvchi» 1986, Mirzaaxmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. -- T.; «O'qituvchi» 1986, Azimov I. O'zbekiston naqshu nigorlari. – T.; G. Gulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1987, Qosimov Q.Q. Naqqoshlik -- T.;

hisoblayman.

S.Q.Palvanova mustaqil ravishda maxsus adabiyotlarni o'qib, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda amaliy foydalanish malakalarini egallagan. Topshirilgan ishlarga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ish umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitish bo'yicha dastlabgi tadqiqotlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Ishda to'g'arak mashg'lot turlari, ularning vazifalari, mashg'ulotlarda o'quvchilar bajaradigan amaliy ishlarning mazmuni o'rganib chiqilgan, har bir yo'nalishga amaliy misollar tavsiya qilingan.

Men S.Q.Palvanovaning "Umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi unga qo'yiladigan talablarga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni Davlat Attestatsiya komissiyasida himoya qilishga tavsiya qilaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:



Qo'chqarova Q.

2013 yil « ____ » _____

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat yo'nalishi bitiruvchisi S.Q.Palvanovanning

"Umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitilishi"

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbari

Q.Qo'chqarovaning

MULOHOZALARI

Bitiruvchi S.Q.Palvanovanning Bitiruv malakaviy ishi "Umumta'lim maktablarida xalq amaliy san'ati turlarining o'qitilishi" mavzusida tasdiqlangan. Bitiruv malakaviy ishi ikki: nazariy va amaliy qismlardan iborat. Nazariy qism kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida hozirgi davrda amaliy san'at mashg'ulotlarining tashkil qilinish ahvoli tahlil qilingan. Shu yo'nalishda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, chop etilgan o'quv metodik adabiyotlar o'rganib chiqilgan va ishning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek kirish qismida muammoning o'rganilganlik darajasi va bitiruvchi tamonidan mavzu bo'yicha e'lon qilingan maqola xaqida malumotlar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi shundaki umumta'lim maktablarida amaliy san'at mashg'ulotlarida shu san'at turiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish, amaliy san'ati xaqidagi nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirish, yangi yangi qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishtirish, o'quvchida zar ipdan buyumlar yasash ko'nikma malakasini shakllantirishga, rivojlantirishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishda bir qancha adabiyotlardan va internet ma'lumotlaridan foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishida 11 ta ilova bo'lib ularda bolalar chaponi va ayollar sumkachalari, nimcha va beshik ko'rti, do'ppi, yostiq jildlari o'rin olgan.

S.Q.Palvanova universitetda tahsil olish davrida mutaxassislik fanlaridan a'lo baholarga o'qidi. Maktab va kollejlarda chizmachilik va tasviriy san'at fanlaridan zamonaviy talablar darajasida dars o'tish malakalarini egallagan deb

«O'qituvchi» 1990, Manakova V.N. O'zbek xonadonining badiiy bezash madaniyati. - T.; G. Gulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1989, Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. -- T.; «Mexnat», 1991, Abdullaev N. San'at tarixi. 2t-T.; «San'at» 2001, Bositxonov Z. Xandasiy naqsh (girix)larning echimlari. -T.: «Ochiq Jamiyat Instituti Ko'mak Jamg'armasining O'zbek Vakolatxonasi», 2002, G'ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. - T.: «Bilim», 2004, Abdullaeva T.A., Xasanova S.A. Odejda uzbekov. - T.: Fan, 1978, Ismoilov X. An'anaviy uzbek milliy kiyimlari. - T.: Fan, 1978 y.

<http://www.ziyonet.uz/ru/library/book/9283/libid/40601>

http://www.artmuseum.uz/gold_sewing.html

http://magic.qirim.org/zoloto_mira/uzbekk.htm

www.colibri.ru/

www.arthistory.ru/

www.ziyonet.uz

www.Google.uz

saytlaridan ham foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tamonlari berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Mavzu bo'yicha zardo'zlik san'ati va bajarish texnologiyasi, zardo'zlikda ishlatiladigan zaruriy ashyo va asbob –uskunalar, unda ishlatiladigan naqishlar va ularning tuzilishlari haqida malumotlar keltirilgan.

Ishda yuqoridagilar bilan bir qatorda bitiruvchi tamonidan bir qator kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Matnda grammatik xatolar uchraydi. Mavzu bo'yicha adabiyotlar kamroq tahlil qilingan.

S.Q.Palvanova tamonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi unga qo'yiladigan talablarga javob beradi va men uni Davlat Attestatsiyasi komissiyasida himoyaga tavsiya qilaman.

Urganch tumanidagi 38-son umumta'lim maktabi tasviriy san'at o'qituvchisi:

2013 yil « 26 » iyun

Sapayeva S.

Maktab direktori: *Shiraf N. Matmuratova*